

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi

Namangan Davlat universiteti

Fizika-matematika fakulteti

Umumtexnika fanlari va kasb ta'limi kafedrası

5140900 – Kasb ta'limi (5810300 - Servis)

405-guruh bakalavriat bosqichi bitiruvchisi

Jo`rayeva Shahnoza Oribboyevna

**“Kasb-hunar kollejlarida mashg`ulotlar
jarayonida o`quvchilar ijodiy qobiliyatlarini
rivojlantirish” mavzusidagi**

BITIRUV MALAKA ISHI

Ilmiy rahbar:

ped.f.n., dotsent Abdullayev S.X.



Namangan-2014

Kasb-hunar kollejlarida mashg`ulotlar jarayonida o`quvchilar ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish

Kirish:

I bob. Kasb ta'limining ahamiyati

1.1. Kasb-hunar kolleji kasb ta'limining maqsadi.

1.2. O'quvchilar ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda kasb ta'limining ahamiyati.

II bob. Kasb ta'limi jarayonida o'quvchilarni ijodiy faoliyatini oshirish.

2.1. O'quvchilar ijodkorligini oshirishda fanlararo bog'lanishning ahamiyati

2.2. O'quvchilarni ijodkorlikka o'rgatishda turli materiallar bilan ishlashning o'rni.

2.3. Guruhdan tashqari ishlar jarayonida o'quvchilar ijodkorligini oshirish yo'llari.

Tajriba va sinov ishlari, ularning natijalari.

Xulosa.

Foydalanilgan adabiyotlar.

KIRISH

Bitiruv malakaviy ishining dolzarbligi.

O'zbekiston Respublikasida "Kadrlar tayyorlash milliy dasturining" 1997 yilda qabul qilinishi Prezidentimiz ta'biri bilan aytganda mustaqil fikrlaydigan, yuksak malakali kadrlar tayyorlashga xizmat qiladi. Prezidentimiz aytganlaridek yoshlarimizga xalqimizga xos bo'lgan xislat mehnatsevarlikni singdirishning ahamiyati kattadir. Vatan mustaqilligini mustahkamlash, xalq farovonligini ta'minlash yo'lida fidokorona mehnat qilayotgan kishilar rag'batlantirilishi zarur. Biz fuqarolarimizda mehnatsevarlik fazilatlarini shakllantirmasdan hozirgi inqirozdan chiqishimiz oson bo'lmaydi. Inson mehnatsevarlik, kamtarlik ruhida yaxshi tarbiyalanmasa kollej ham, kasb-hunar kolleji ham, jamoa ham buning uddasidan chiqishlari qiyin.

O'zbek millatining g'ururi, milliy iftihori ona Vatanimizning buyuk ko'p yillik tarixida, vatandoshlarimiz bo'lmish jahon miqyosida, diyorimizning bebaho san'at, madaniyat, memorchilik yodgorliklarida yaqqol namoyon bo'ladi. Shuning uchun ham xalqimizning tarixiy madaniyat yodgorliklarini yosh avlodga yetkazish pedagoglardan katta mas'uliyat talab qiladi. Zero, ma'naviyatimiz hazinasi durdonalaridan bahramand bo'lib tarbiyalangan sog'lom avlod ruhan tetik bo'ladi. Prezidentimiz I.A.Karimov aytganlaridek "Biz barpo etayotgan yangi jamiyat yuksak manaviy va ahloqiy qadryatlarga tayanadi va ularni rivojlantirishga katta e'tibor qaratadi. Bu jarayon o'sib kelayotgan yosh avlodni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga asoslanadi. Respublikamizda yuz berayotgan ijtimoiy – iqtisodiy, ma'naviy, ma'rifiy madaniy islohatlarning intikosi inson shaxsining shakllanishida aks etadi. Jamiyatning barcha tizimlarida ro'y berayotgan o'zgarishlar uzluksiz – ta'lim–tarbiya tizimida ta'lim jarayoni orqali o'quvchilarning shakllanayotgan shaxs fazilatlarini sifatida namoyon bo'ladi. Kasb-hunar

ta'limi uzluksiz ta'lim tizimining muhim bosqichi bo'lib, ushbu bosqichda o'quvchilarning ruhiy –jismoniy, hissiy xususiyatlari bir necha marta o'zgarib turadi. Ularni kelajakda har tomonlama yetuk, komil inson qilib tarbiyalashda san'atning adabiyot, musiqa, insho, teatr kabi turlari bilan bir qatorda Kasbga tayyorgarlik fani ham katta o'rin tutadi.”

Bugungi kunda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ta'lim siyosatining maqsadlaridan biri yosh avlodni har tomonlama barkamol inson qilib tarbiyalashdir. Barkamol inson deganda ma'naviy jihatdan yetuk, o'z vatanining tarixi, bugungi va kelajagi uchun qayg'uradigan, shuningdek, iqtisodiy taraqqiyotiga o'z hissasini qo'shish ishtiyoqida yonib yashaydigan shaxsni tushunish bugungi kun talabiga mos keladi.

Hozirgi kasb-hunar kolleji ta'limi oldiga qo'yiladigan talablar ortib bormoqda. Bu o'z navbatida kasb ta'limi oldiga murakkab va mas'uliyatli vazifalarni qo'yadi. Kasb ta'limining mazmuni esa shu vazifalarga to'la bog'liqdir. Demak tarbiya yosh avlodni hayotga, kasbga tayyorlashda, u mavjud jamiyat imkoniyatlarini shakllantirish, yanada rivojlantirish maqsadida keksa avlod tomonidan ortirilgan tarixiy tajribani to'ldirgan, yanada mukammallashtirgan holda yosh avlodga singdirishdan iborat. Respublikamizda ta'lim – tarbiya sohasidagi islohatlar keng doirada amalga oshirib kelinmoqda. “Hozirgi kunda innovatsion texnologiyalar va ilm fanni yanada rivojlantirish, iqtidorli yoshlarni ilmiy faoliyatiga keng jalb etish, o'z ijodiy va intellektual salohiyatini ro'yobga chiqarishlari uchun ularga shart – sharoitlar yaratish muhim ahamiyatga ega”.¹ Ular orasida mamlakatimizda yangi “Ta'lim to'g'risidagi qonun” va “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” qabul qilinadi. “Unga o'quvchi yoshlarni eng ilg'or ilm – fan yutuqlaridan habardor qilish, buyuk allomalar merosini chuqur va teran o'rganish,

¹ Karimov I.A. “Mamlakatimizning modernizatsiya qilish yo'lini izchil davom ettirish –taraqqiyotimizning muhim omilidir”, “Ishonch” gazetasi, 2010 yil 8- dekabr

zamonaviy texnologiyalar asosida ta'lim –tarbiya jarayonini tashkil qilish, yoshlarni ma'rifatli qilishga barcha sharoitlarini yaratishni nazarda tutadi.”²

Ta'lim tizimi shaxsni shakllantirish uchun, davlat standarti talablari asosida hamda jahon ta'lim darajasida kadrlar tayyorlash uchun avvalo o'quvchilar, murabbiylar shaxsini har tomonlama mukammal bo'lishi talab qiladi. Bu borada, kasb-hunar kolleji o'quvchisining mas'uliyati katta bo'lib, ta'lim tizimlarining asosini, poydevorini yaratuvchi shaxsdir.

Ilg'or pedagogik texnologiya, avvalo fanlar orasidagi bog'liqlikni ta'minlash, ortiqcha qiyinchiliklarni bartaraf etish, vaqtdan unumli foydalanish, tashabbuskorlik muhitini yuzaga keltirish, o'quvchilar ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish kabi qator maqsadlarni amalga oshirish kabi zarur ishlarni bajaradi.

Jahonning ko'plab ilg'or mamlakatlarida tajribadan o'tgan yangi ilg'or pedagogik texnologiyalar maqsadini amalga oshirishdagi samarasi yuqori ekanligi bilan ahamiyatlidir.

Chunki bunda e'tibor o'quvchining faoliyatini va ijodiy qobiliyatini oshirishga qaratiladi. Hozirda ishlab chiqarish juda tez suratlar bilan rivojlantirilmoqda. Kasb qurollari, texnologik jarayonlar uzluksiz takomillashib bormoqda. Bu ma'lum darajada kasb ta'limida ham o'z aksini topishi kerak.³ Demak, kasb o'qituvchisi fan va texnika sohasidagi taraqqiyotni uzluksiz kuzatib borishi, ulardan o'quvchilarni tushunarli formada habardor qilib borishi lozim. O'qituvchilarning kasb ta'limi jarayonida foydalanadigan metodik vositalar shakli ham o'zgarmay qolmaydi. O'qituvchilar bilim berishning yangi usullarini, uzluksiz ravishda bilim, o'quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini shakllantirishning yangi usullarini topishlari lozim. SHunga ko'ra har bir o'qituvchi ilg'or pedagogik tajriba yoritiladigan vaqtli matbuotni kuzatib borishlari va ulardan o'rnida

² O'zbekiston Respublikasi “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”. Toshkent 2000 yil.

³ Karimov I.A. Mamlakatimizda demokratik islohatlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi. T.: O'zbekiston 2010 yil 56- bet.

foydalanishlari lozim. Bugungi kunda ta'lim sifatini ta'minlash o'quvchilarni ijodiy qobiliyatlarini oshirishda muhim o'rin tutadi. Bu eng avvalo, o'qituvchining mahorati, yangi pedagogik qo'llanma va yangi ilg'or pedagogik texnologiyalar bilan nechog'lik tanishligiga borib taqaladi. Ayni shu jihatdan ta'lim tizimida keng qamrovli yangilanish jarayonlari amalga oshirilayotgan hozirgi bosqichda o'qituvchining zamonaviy shakl va usullarini amaliyotga tadbqiq etishga alohida e'tibor berilyapti.⁴

Qolaversa Davlat ta'lim standartlari va o'quv dasturlari ta'lim jarayoniga tadbqiq etilmoqda, bu har bir soha hodimidan alohida yondoshuvni talab qilmoqda. Shu jumladan kasb-hunar kolleji kasb ta'limi darslarida ham yangi ilg'or pedagogik texnologiya asosida ta'lim – jarayonini tashkil etish dars maqsadini amalga oshirishda ijobiy samaralar beradi. O'qituvchi tomonidan kasb ta'limi darsining qiziqarli olib borilishi natijasida o'quvchilarning ijodiy qobiliyatlari oshib boradi. O'quvchilar turli rangdagi qog'ozlardan buklash, rejalash, qirqish, yelimlash orqali “Baliq”, “Xo'rozcha”, “Filcha”, “Qushlar”, “Gullar”, “Daraxtlar” shu kabilarni aplikatsiya usulida tasvirlaydilar. Biz bular orqali o'quvchilarda, tasvirlash usullari, badiiy did, emotsional sezgirlik, ijodiy qobiliyatini rivojlantrish, fazoviy fikrlar, ko'rish orqali tasavvur qilish, chamalash rang sezish, idrok qilish, his – tuyg'u va olgan bilimlarini hayotga tadbqiq etish, yaxshi xulq, san'atga va kasbga bo'lgan muhabbatlarini oshirish kabi hislatlarni shakllantiramiz. Fanga, san'atga bo'lgan qiziqishlarini ortirishga erishamiz.⁵

O'quvchilar kasb darslarida badiiy kasb asoslari bilan ham tanishib boradilar. Bunda ularning tasavvuri ijodiy qobiliyati, o'ziga xos qiziqarli buyumlarni yasay olish malakasi ham turli materiallar bilan ishlash malakalari ham rivojlanib boradi. Buyumlarning ta'sirchanligini oshirishda

⁴ Karimov I.A. “Barcha reja va dasturlarimiz vatanimiz taraqqiyotini yuksaltirish, xalqimiz farovonligini oshirishga xizmat qiladi”, “Xalq so'zi” gazetasi 2011 yil 22-yanvar 2-bet

⁵ Karimov I.A. “O'zbekiston Respublikasi mustaqilligining 19 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimidagi so'zi”, “o'zbekiston ovozi” gazetasi 2010 yil 1-sentabr 1-bet

turli chiqindi materiallardan foydalanish ham yaxshi natija beradi. O'quvchilarni ijodiy qobiliyatlarini oshirishda tabiiy materiallarning o'rne juda katta. Tabiiy materiallarni to'plash o'quvchilarning o'qituvchi rahbarligida sayohatlari vaqtida amalga oshiriladi. Sayohatdan avval ularga qilinadigan ish namunasi ko'rsatiladi. O'quvchilar buyum nimadan iborat bo'lishini, uning shaklini aniqlaydilar. Shu qatori buyum doni va uning so'tasidan tayyorlanadigan buyumlar yasash borasida to'htalib o'taman. Shunday qilib, avvalo o'qituvchi buyum tasvirlangan plakatni doskaga ilib qo'yadi. O'quvchilar ana shu namunaga qarab o'z vazifalarni belgilab oladilar, ya'ni o'simlikni tanasi, barglari, doni va so'tasi, mevasini qoplab olgan qalin po'sti, popugi, uzun barglari navlarini tahlil qiladilar.

Qog'oz va karton bilan ishlash mobaynida ham kasb-hunar kolleji o'quvchilarini ijodkorligi yanada shakllanib boradi. Qog'oz va karton bilan ishlash jarayonida barcha buklash, qirqish, yelimlash, sim ip bilan qo'zg'aluvchan qilib biriktirish jarayonlarini o'qituvchining dars davomidagi ko'rsatmalari va yordam orqali turli buyumlar yasash mumkin. O'rganib olgandan so'ng o'zlari mustaqil yasashga va fantaziya yaratishga o'rgatish lozim. Plastilin va loy turli shakl orqali hayvonlar, qushlar va boshqalarni yasashga o'rgatishimiz lozim. Buning uchun loy va plastilindan dumaloqlash, bosib yalpaytirish, siqimlab cho'zish, orqali qismlarni maxsus sidirg'ich yordami bilan olib tashlash usullari bilan tanishadilar. Shu bo'lakchalar orqali bir –biriga biriktirish orqali biror narsa yasash mumkin. Kasb-hunar kolleji o'quvchilarini ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda aytib o'tganimdek turli materiallar bilan ishlashning o'rne juda beqiyos faqatgina biz bularni o'quvchilarga to'g'ri tushuntira va o'rgata olishimiz kerak. Shu orqali yanada ularning qobiliyatlari rivojlanib boradi.

Bitiruv malakaviy ishining dolzarbligi o'sib kelayotgan yosh avlodni har tomonlama yetuk, barkamol shaxs qilib tarbiyalash va o'quvchilarni ijodkorligini oshirish eng muhim vazifalardan biridir. Jamiyatimizda hozirgi

kunda barkamol, ijodkor shaxs tarbiyasiga katta e'tibor berilmoqda. Ushbu yozilgan bitiruv malakaviy ishi shunday dolzarb masalaga qaratilgan va bu borada izlanish olib boriladi, ya'ni kasb darslarida o'quvchilarni ijodiy qobiliyatlarini oshirish borasida izlanishlar olib boriladi.

Bitiruv malakaviy ishining vazifalari.

1. O'zbek xalq tasviriy va amaliy san'ati turlari bilan tanishtirish.
2. Turli materiallar bilan ishlash yo'llari
3. Qog'oz va kartondan har xil buyumlar yasash yo'llari
4. Kasbga va mehnat ahliga hurmat tuyg'usini singdirish.
5. Ijodkorlikka yo'naltirish
6. Ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish.
7. O'quvchilar intellektual salohiyatini o'stirish.
8. Turli shakl va uslublardan foydalanish
9. Kuzatuv, tajriba –sinov ishlarini o'tkazish.
10. Yangilik, tavsiya va xulosalar berish.
11. Ish yuzasidan ijobiy natijalarga erishish.
12. Darslar samaradorligini oshirishga ko'maklashish.

Tadqiqot obyekti va usullari

Tadqiqot ishimni o'tkazish uchun Namangan viloyati Pop tumani Maishiy hizmat ko'rsatish Kasb-hunar kolleji G'ulamova Adashhon rahbarligik qilayotgan 123- guruhda tajriba – sinov ishimni olib bordim. Obyekt qilib Gapparova Muxarram rahbarlik qilayotgan 122- guruhda olib bordim. BMI ni yozishda kuzatish, suhbat eksperimental tajriba matematik tahlil usullardan foydalanish nazarda tutilgan.

Ishdagi yangilik va erishilgan natijalar.

Bitiruv malakaviy ishning yangiligi kasb-hunar kolleji kasb darslari jarayonida o'quvchilarni ijodiy qobiliyatlarini oshirishda, turli materiallar bilan ishlash, fanlararo bog'lanishning ahamiyati, guruhdan tashqari ishlar, darslarda turli shakl va metodlardan foydalanish yo'llari ko'rsatilgan.

Bu tadbirlar orqali o'quvchilarning ijodiy faoliyatini oshirildi, intellektual salohiyatlari oshdi, san'atga bo'lgan qiziqishlari ortirildi. Amaliy ishlar bo'yicha bilimlari oshdi. O'zlashtirish ko'rsatkichlari ko'tarildi. Ijodiy qobiliyatlari yanada rivojlantirilib borildi.

Tadqiqotni nazariy va amaliy ahamiyati.

Kasb-hunar kolleji ta'limida pedagogik, noan'anaviy usullar asosida darslarni tashkil qilish yo'llari, ham dars samaradorligiga erishish o'quvchilarni san'atga va kasbga oid bilimlarini kengaytirish ularni kasbga yo'naltirish o'quvchilarni vatanparvar va ijodkor qilib tarbiyalash, o'quvchilarni ijodiy qobiliyatlarini shakllantirish, ustoz va shogird an'analarini davom ettirishga yo'llash kabi ishlarni amalga oshirish va kasbga oid mavzular nazariy jihatdan asoslangan.

Ushbu BMIda yoritilgan nazariy va amaliy hollardan kasb-hunar kolleji o'quvchilari, oliy o'quv yurtlari pedagogika fakulteti talabalari, o'quv jarayonini tashkil etishda foydalanish mumkin.

Bitiruv malakaviy ishining tuzilishi.

Bitiruv malakaviy ishi kirish, ikki bob, besh band, tajriba, xulosa va foydalanilgan adabiyotlardan iboratdir.

Ushbu rejalar loyihasi asosida mavzuni nazariy va amaliy jihatdan yoritiladi. Ma'lum darajada ko'zlangan maqsadga erishishga harakat qilingan.

I bob. Kasb ta'limining ahamiyati

1.1. Kasb-hunar kolleji kasb ta'limining maqsadi.

Mamlakatimiz XXI asrda jahon iqtisodiyoti, madaniyati va siyosatida mansub o'rin olish uchun tarixiy imkoniyatlarga ega. Biz o'zimiz uchun eng muhimi bolalarimiz va nabiralarimiz uchun butun dunyo bilan hamkorlik qilish imkoniyatlarini ochmoqdamiz. Ya'ni hozir bilim darajasi jihatidan respublika xalqi o'qimishli davlatlar qatoriga kiradi.

Mubolag'asiz aytish mumkinki, fanimiz aql zakovatimiz salohiyatimizning noyob va go'zal binosiga bundan ko'p asrlar muqaddam poydevor solingan edi. Mamlakatimiz fani juda qadim zamonlardan yuksala boshlaganini, uning chuqur qudratli ildizlari borligini faxrlanib ayta olamiz. Asrlar davomida o'zbek millatiga, butun insoniyatga tabiat sirlarini o'rganishda tibbiyot, falsafa, xuquqshunoslik, ilohiyot, adabiyotshunoslikda ishonchli xizmat qilib kelmoqda.

Uzoq o'tmishdayoq o'zbek xalqining ilg'or mutafakkirlari olib borgan tadqiqotlar, ularning amalga oshirgan kashfiyotlari jahon, umum insoniyat fani va madaniyatining oltin xazinasini tashkil etadi.

Bilimlar xazinasini ochgan buyuk ajdodlarimizning nomlari butun dunyoga mashxur.

Olimlarimiz eng yaxshi an'analarimizni o'zlashtirib, tarixiy merosimizni chuqur o'rganib, buyuk ajdodlarimizning ishlarini munosib davom ettirmoqdalar. Ilmiy ziyolilarimizning muhim fazilati hamda vaqt bilimga, ilg'or ilmiy tafakkurning oldingi marralarida bo'lishga intilishdan iborat. Ular yangi, kam o'rganilgan, dolzarb muammolarni taqdim qilishga dalil kirishib, o'z kasblari bilan respublikani ijtimoiy iqtisodiy rivojlanishiga, innovatsiya salohiyatini mustahkamlashga sezilarli xissa qo'shmoqdalar. Shularni hisobga olib har bir ijtimoiy tuzum, uning kelajagi, insoniyat

istiqboli, kishilarning hayot va turmush darajasi fan madaniyat taraqqiyoti bilan bevosita bog'liqdir.

Binobarin, Mustaqillik tufayli, ko'hna Turkiston diyorida istiqomat qilib kelgan barcha xalqlar milliy qadryatlarning qayta tiklanishi va rivojlanishiga shart –sharoitlar vujudga keldi. Ayni paytda o'zbek va boshqa qardosh xalqlarning milliy shakllanishi va rivojlanishini zamon talablariga mos keladigan ta'lim – tarbiya tizimisiz tasavvur qilish mumkin emas.

Yosh avlodni tarbiyalash va o'qitish nazariyasi bilan amaliyotning qanday taraqqiyot qilib kelganligini bilmay turib, yoshlarni har tomonlama komil inson etib tayyorlash masalalarini ilmiy ravishda xal qilib bo'lmaydi. Bu ajdodlarimiz tomonidan isbot qilingan, ilmiy –nazariy, falsafiy – tarbiyaviy haqiqatdir.

O'zbek xalqi tarixdan ta'lim – tarbiya sohasida o'ziga xos dorilfunun yaratgan. Jamiyatimiz taraqqiyotining hozirgi bosqichi, kasbning harakteri va mazmuniga, insonni hayotga tayyorlashga yuksak talablar qo'yadi. Har bir yosh avlod malaka ko'nikma hosil qilishi, ma'lum bir kasb egasi bo'lishi lozim.

Kasbga tayyorlash vazifalari ta'lim tarbiya sistemasi, hamda barcha o'quv predmetlari yordamida hal etiladi. Bu o'rinda kasbkorlik darslari yetakchi rol o'ynaydi.

Shunga ko'ra har bir kishining hayotga tayyorlash, tarbiyalashda aniq o'zgarishlar qilinishi lozim.

Kasb tarbiyasi va ta'limining maqsadi kasbga muhabbat va mehnat axliga hurmat tuyg'usini singdirishdan; o'quvchilarni hozirgi zamon sanoat va qishloq ho'jalik ishlab chiqarish, qurilish, transport, hizmat ko'rsatish sohalari asoslari bilan tanishtirishdan; adabiyot va ijtimoiy foydali ish jarayonida ularda kasb ko'nikmalari va mahoratini hosil qilishdan; ongli ravishda boshlang'ich hunar ta'limini olishga undashdan iborat.

Kasb ta'limi va kasbga tayyorlash vazifalari ta'lim tarbiya sistemasi hamda barcha o'quv predmetlari yordamida hal etiladi.

Bu o'rinda kasb darslari yetakchi ro'l o'ynaydi.

Kasb ta'limining boshlang'ich bosqichi guruhlardagi kasb darslari o'quvchi qo'lidan keladigan ijtimoiy ishdur.

Kasb ta'limining asosiy vazifalari yosh o'quvchilarni komil inson bo'lib tarbiyalash uchun kasbga ahloqiy va psixologik tayyorlash, o'quvchilarni boshlang'ich politexnik bilim bilan qurollantirish, kasb ko'nikmalari bilan qurollantirish, o'quvchilarni kasb ta'limi jarayonida har tomonlama o'stirish kabilardan tarkib topadi.

Mustaqil respublikamiz amaliyotda qo'llanayotgan baxt qonunimizda belgilab qonunlarimizdan kelib chiqqan holda shuni ta'kidlash lozimki, har tomonlama komilga yetgan barkamol inson uchun zarur bo'lgan ma'naviyat qirralari iymon, e'tiqod, vatanparvarlik, insonga cheksiz muhabbat, do'stlik, sabr –toqatlilik, milliy g'urur kabi fazilatlarini shakllantirish zarurdir.

Asrlar davomida inson aql –zakovati bunyod etilgan bosh ma'naviyat tufayli, deydi Prezidentimiz I.A.Karimov – xalqimiz mag'rur yashadi, mehnat qildi, doimo hurriyat va erk sari intildi.

Buyuk allomalarimiz tomonidan yaratilgan og'zaki va yozma ijodiyot, avloddan –avlodga o'tib kelayotgan iymon – e'tiqod sirlarining nazariy va amaliy jihatlari haqidagi bilimlar bilan qurollantirish lozim.

O'zbekiston Respublikasi Oliy majlis 1997 -yil 29 -avgustda qabul qilingan “Ta'lim to'g'risida”gi yangi qonuni va “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” ta'lim sohasidagi siyosatimizni belgilab berdi. Uzlaksiz ta'limni isloh qilish, uzluksiz ta'lim tizimi va turlari masalalarini qamrab olgan. Prezidentimiz I.A.Karimov ta'kidlaganidek “Har bir insonning ayniqsa endigina hayotga qadam qo'yib kelayotgan yoshlarning ongiga shunday fikrni singdirish kerakki, ular oldiga qo'yilgan maqsadga erishish o'zlariga bog'liq ekanligini, ya'ni bu narsalar ularning sobit qadam, g'ayrat shijoatiga to'la –

to'kis fidokorligi va cheksiz mehnatsevarligiga bog'liq ekanligini anglab yetishlari kerak".

Kasbni sharaflash mehnat ahlini qadr – qimmatini uning mashaqqati uchun astoydil kurashish, o'sib kamol topayotgan o'quvchilarga yosh avlodga ta'lim –tarbiya berish jarayonida kasbga munosabatlarini shakllantirish zarur bo'lib, o'quvchilar yosh avlod jamiyatimiz taraqqiyotida o'z bilimi, kasb hunarlari bilan hissa qo'shishlarini pedagog – tarbiyachilarning oldida turgan eng muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. Kichik guruh o'quvchilarini kasbga o'rgatishning asosiy maqsadi, boshlang'ich kasb elementlari bosqichlari, ya'ni bajariladigan ishlarning oddiy elementlari (qog'ozlarni buklash, qirqish, yelimlash, geometrik figuralarni yasash, aplekatsiya ishlari).

Hozirgi jamiyat talablarini bilish maqsadida ta'lim mazmunini va fan texnikaning eng yangi yutuqlari bilan boyitishga: ta'lim tarbiya jarayonida Kasb ta'limining ro'lini oshirishda o'quvchilarni ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish va o'quvchilarni tarbiyalash uchun ota –onalarning va o'qituvchilarning mas'uliyatini oshirishga ajratilgan. Bu o'z navbatida kasb ta'limi oldiga murakkab va mas'uliyatli vazifalar qo'yadi. Vujudga kelgan imkoniyatlardan o'qituvchi shaxsni to'liq rivojlantirishi uchun to'liq imkoniyatini beradi. Kasb ta'limi mutaxassis tayyorlashni o'z maqsadi qilib qo'ymaydi. Balki o'quvchilar ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish uchun vositachi hisoblanadi. Kasb-hunar kollejlardagi kasb ta'limi tarbiyasi va ma'lumoti, kollejdin Kasb asosini namoyon bo'lishi va uning o'zagi bo'lib, o'zaro yordam ko'rsatish, estetika va essismonit, ijodiy qobiliyatlarini rivojlanish jarayonidagi kasb kuchi jihatlarini qamrab oladi. Ta'lim jarayonida kasb-hunar kolleji o'quvchilari kasbining nazariy va amaliy hamda samarali, eng oddiy asosiy negizlari va tarbiyaviy qismlarini, umumlashgan kasb malakalari bilish va amaliy faoliyat usullarini egallashga qaratilgan 1920- yili maorif hodimlari tomonidan o'qitishning kompleks, biroz qiyinroq esa loyiha sistemasini paydo bo'ldi, loyiha sistemasiga binoan matematika,

himiya, biologiya va boshqa o'quv fanlariga oid bilim elementlari, o'quvchilarga beriladigan kasb topshiriqlari atrofiga usullash boshlandi.

Kasb-hunar kolleji o'quvchilarini mehnat qilishga munosabatini o'zgartirib, raqobatga arzigulik qishloq xo'jalik mahsulotlarini ishlab chiqarishga va xunarmandchilikka qiziqishlarini takomillashtiradi.

Farobiyning insoniy fazilatlar to'g'risidagi ta'limotidan quyidagi ma'lum xulosalarga kelish mumkin:

1. Kasb-hunar kolleji o'quvchilarini birinchi bosqichdanoq bu jamiyat insonlarni o'zaro birikuvi yordamida insonning o'z moddiy ehtiyojlarini qondirishga bo'lgan intilishi natijasida vujudga kelishi va jamiyatdan tashqarida insonlardan, jamoadan ajralgan holda o'zaro yordamsiz o'z ehtiyojini qondira olmasligini tushuntirib borish.

2. O'quvchilar o'zlarining barcha tug'ma qobiliyatlarini yuksak kamolotga erishish uchun sarf qiladi va bu yo'lda o'zini qurshagan tabiat hodisalaridan foydalanadi, ularni o'ziga xos bo'ysundiradi. Buning uchun ilm fanni, to'g'ri hunarlarni o'rganadi.¹

Farobiy shuning uchun ham ta'lim –tarbiya masalalariga juda katta e'tibor berib, insonni fazilatlariga erishishi, oliy maqsad bilan kamolotga erishishi ta'limda Kasb va aqliy tarbiyaga ega bo'lishi muhim o'rin tutadi.

Prezidentimiz I.A.Karimovning Respublika Oliy Majlisining IX sessiyasida so'zlagan nutqida boshqa ta'lim turlari qatori umumiy o'rta ta'lim kollejlari, ayniqsa kasb-hunar kollejlar faoliyati ham jiddiy tanqid ostiga olingan edi. Bunda asosiy jihat kasb-hunar kollejlariga kasbga qiziqtirish, ijobiy qobiliyatlarini rivojlantirish, kasb ko'nikmalari shakllanmay qolayotganligini o'quvchilar istaklari ijodiy va kasb moyilliklariga monand holda hayot yo'llarini belgilab olishda qiyinchiliklar sezilayotganligi ta'kidlangan va shu bilan birga umumiy o'rta ta'lim tizimini isloh qilish bilan bog'liq maqsadlar belgilab olingan edi.

¹ Farobiy "Fozil odam shaxri", Toshkent "O'zbekiston" nashriyoti 1993 yil 62-bet

Kasb ta'limi o'qituvchilari rahbarligida o'quvchilar tomonidan bajaradigan ishlar aqliy va jismoniy harakatlar natijasida ularning mehnat qurollari, vositalari va jarayonlari haqidagi bilimlarni, hamda ma'lum sohadagi ishlab chiqarish kasbini bajarish uchun zarur amaliy ko'nikma va malakalarni egallashlariga, ongli ravishda kasb tanlashga jamiyat va shaxs farovonligini beruvchi shaxsiy sifatlarni va tafakkurlarini rivojlantirishga qaratilgan o'quv fanidir.

Kasb ta'limining mazmuni esa shu vazifalarga to'la bog'liqdir. Ya'ni shu vazifalarga ko'ra belgilanadi.

Kasb-hunar kolleji o'quvchilarining faoliyatlari imkoniyatlariga qarab unumli kasbni o'z ichiga olishi kerak.

Kasb-hunar kolleji o'quvchilarining unumli mehnat ularning o'quv faoliyatlariga tortilgan va qo'shilib ketishi kerak.

Unumli mehnat mazmunida o'quvchilarning yoshi, imkoniyatlari, Kasb ta'limi vazifalari, ishlab chiqarish muhitining harakteri hisobga olinishi kerak. Kasb-hunar kollejlarda o'quvchilarning amaliy faoliyatlariga asosiy e'tibor beriladi. Bunga o'quv vaqtining 80-85 % ajratiladi. Kasb topshiriqlarini bajarishda o'quvchilar ko'rsatmalar, qo'llanmalar, materiallar, buyumlar, tabiiy materiallardan buyumlar tikadilar va yasaydilar.

Kasb ta'limining metodikalaridan biri suhbat bo'lib, odatda kasb ta'limi sharoitlarida o'quv ko'rgazmasi bilan birgalikda amalga oshadigan tushuntirish tez –tez qo'llanadi.

1. Mazmunning to'g'riligi. Kasb-hunar kolleji o'quvchilariga aytiladigan o'quv rejasining mazmunga mos kelishi va ilmiy asoslangan bo'lishi kerak.

2. Materialni o'zini oqlagan izchillikda bayon qilish. Avval o'quvchilarni tarkibiy qismlarga (amalda yoki fikran) bo'lish, ularni o'rganish va unga chuqurroq qarash kerak.

3. Aniqlik va isbotchilik. Kasb ta'limining mazmuni odatda o'quvchilar tanishadigan nazariy qoidalarini va mehnat usullarini bajarish qoidalarini qisqa, ammo aniq va ishonchli asoslash imkonini beradi.

4. O'qituvchining nutq madaniyatining tushuna oladigan bo'lishi kerak.

Kasb ta'limi o'qituvchi rahbarligida o'quvchilar tomonidan bajariladigan aqliy va jismoniy harakatlar jarayonidan iborat bo'lib, yakuniy natijada ularning kasb qurollari vositalari va jarayonlari haqidagi bilimlarni hamda ma'lum sohadagi ishlab chiqarish kasbini bajarish uchun zarur amaliy ko'nikma va malakalarni egallashlariga, ongli ravishda kasb tanlashga qoida jamiyat va shaxs farovonligini beruvchi shaxsiy sifatlarini va tafakkurlarini rivojlantirishga qaratilgan o'quv fanidir.

Kasb ta'limini maqsadi kasb-hunar kolleji o'quvchilariga faqat bilim, ko'nikma va malakalar berishgina emas, balki ularda kasbga, mulkga, jamoa va uning a'zolariga ongli munosabatni, shaxsiy va jamoa foydasi uchun ishlashga tayyorgarlikni tarbiyalashdan iboratdir. Kasbga ongli munosabatni tarbiyalash kasb tarbiyasini vazifasi va yo'lidir.

Kasbga ongli munosabat har bir shaxsning ahloqiy qiyofasini asosiy xususiyatidir. Har bir o'quvchi, ishchi, jamoa a'zosi, aqliy kasb kishisi o'z hayotini kasbsiz tasavvur qila olmaydilar. Har bir o'quvchi kasbni shaxsiy hayoti va o'zaro yordam hissini tarbiyalab borishi lozim.

Kasb topshirig'ini bajarish jarayonida ular ba'zi ishlarni birgalikda, bir –birlariga yordam berib, maslahatlashib bajarishga to'g'ri keladi. Bu imkoniyatga o'qituvchi vaqtida tabiiy va tashlandiq materiallarni ko'plab yig'ish hamda kollejga olib kelish kasb darslarida ham foydalanish mumkin. Shuning uchun o'qituvchi har bir darsda bu haqida bolalarga ko'rsatma berishi yangi bajarilgan ishlardan ularga namunalar ko'rsatib turish yaxshi natija beradi.

Kasb-hunar kollejlarda kasb ko'nikma va malakalarni shakllantirish kasb ta'limi metodikasida juda muhim o'rin tutadi. Mantiqiy o'qitish metodlarini o'ziga hos xususiyatlari shuki unda o'qitish jarayoni o'qituvchining kasb usullarini namoyish qilish va o'quvchilarning unga taqlid qilish asosida tashkil topadi. Asosiy shartlari quyidagilardan iborat:

1. Topshiriqni aniqlash. Uni maqsadi va bajarishni tushuntirish.
2. O'quvchilarda zarur bilimlarni mavjud bo'lishi.
3. Ta'lim metod va usullarini shakllantirilayotgan ko'nikma va malakalarning xususiyatlariga moslash.
4. O'quvchilarni o'z vaqtida baholash o'quvchilarni baholash natijalaridan habardorligi.
5. O'quvchilar faoliyatini aktiv harakteri kasb ta'limi mashg'ulotlarida o'quvchilarning turli materiallar bilan ishlashi, turli tikish va adabiyot usullari bilan tanishtirib borsa, birinchidan ularning badiiy estetik tarbiyasi amalga oshirilsa, ikkinchidan qiz bolalarning shu kasbga qiziqtirib boradi.

Kasb-hunar kollejlarda o'quvchilarning fan orqali ularning tikish, qiyish va o'zlariga kerakli narsalarni tayyorlash o'rgatish va shu kasbga qiziqtirib boriladi. O'quvchilarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda badiiy kasb va tasviriy san'atning hamma turlaridan keng foydalanish mumkin. O'quvchilar xalqimizning rivoyatlari ertak –dostonlari, latifalari, maqol –topishmoqlarini o'rganish orqali tasviriy san'atning naqqoshlik, ganchkorlik, rang –tasvir, mozaika, haykaltaroshlik va boshqa sohalari bilan ham tanishib boradilar.

Respublikamizda o'quvchilarni milliy o'zlikni anglash, o'tmishni tushunish, o'zbek xalqining tarixiy qadriyatlarini hurmat qilish ruhida tarbiyalash badiiy ta'lim tizimining asosiy g'oyalaridan biri hisoblanadiki uni amalga oshirishda milliylik, tashabbuskorlik, zamonaviylik, tarixiylik kabi tamoilarga rioya etish muhim ahamiyat kasb etadi.

O'quvchilarning mazmun tushuncha va xislatlarini yanada boyitish uchun tasviriy san'at va badiiy kasbdan dars va mashg'ulotdan tashqari ishlar mazmunini takomillashtirish va undagi vatanparvarlik tarbiyasi masalalarini uzluksiz, samarali hal etish maqsadga muvofiq bo'ladi. O'quvchilarni san'atga hunar o'rganishga bo'lgan qiziqishlarini oshirishda xalq ustalar uning badiiy ijodi va istedodi, estetik qarashlari, inson didi va falsafasi bilan tanishtirish alohida ahamiyat kasb etadi. Ma'lumki xalq ustalarining badiiy ijodida o'ymakorligi katta o'rin egallaydi. O'quvchilarga narsalar tikish va tadabiyotning tarixiy rivojlanishi va bugungi kundagi taraqqiyoti o'quvchilarning bu hunarga bo'lgan qiziqishlarini orttirib kelmoqda.

Kasb-hunar kolleji kasb tarbiyasining maqsadini oladigan bo'lsak: o'quvchilarda kasbga ongli munosabatni shakllantirishdir. Mazkur maqsadga erishish yo'lida quyidagi vazifalarni ijobiy hal etish maqsadga muvofiq.

- o'quvchilarda kasb qilish istagini qaror toptirish va ularni zamonaviy ishlab chiqarishning turli sohalarida faoliyat yuritishga tayorlash;

- o'quvchilarda umumjamiyat manfaati yo'lida kasb qilish ehtiyojini hosil qilish;

- o'quvchilarning aqliy qobiliyatlarini rivojlantirish;

- o'quvchilarning mavjud bilimlarini uzluksiz ravishda takomillashtirib borishlari uchun zarur shart –sharoitini yaratish;

- o'quvchilarda kasb ko'nikma va malakalarini tarkib toptirish;

- o'quvchilar faoliyatida yuqori madaniyat, maqsadga intilish, tashkilotchilik, kasb intizomi, tadbirkorlik, ishni sifatli bajarish, moddiy boyliklarga ehtiyotkorona munosabatda bo'lish, hayotiy faoliyat yo'nalishini belgilash malakalarini shakllantirish;

- o'quvchilarda davlat iqtisodiy siyosati mazmuniga tayangan holda ular yashab turgan xududlar ishlab chiqarish xususiyatlariga muvofiq kasblarni egallashga bo'lgan qiziqishni oshirish;

– o'quvchilarni kasbga yo'llash, ularni kasb faoliyatining barcha turlari, shuningdek, ular yashayotgan xududda ehtiyoj mavjud bo'lgan mutaxassisliklar bilan tanishtirish.

O'quvchilar kasb tarbiyasida quyidagi mezonlarni asos qilib olish maqsadga muvofiq.

Bular:

– o'quvchilar tomonidan kasbning ijtimoiy ahamiyatining tushunishini;

– o'quvchilarning ixtiyoriy ravishda kasb qilishlari;

– o'quvchilarda mehnat qilmay hayot kechiruvchilarga nisbatan nafrat uyg'otish;

– o'quvchilarda kasb va mehnat ahliga hurmat tuyg'ularini qaror toptirish;

– o'quvchilarda kasbda javobgarlikni his etish tuyg'usini tarbiyalash;

– o'quvchilarning kasbga ongli munosabatda bo'lishlariga erishish;

– kasbda ijodkorlikni qo'llab –quvvatlash;

– o'quvchilarda jamiyat va umumxalq ko'z qorachig'iday asrash tuyg'ularini shakllantirish;

– kasbda do'stlik o'rtoqlik va hamkorlikka erishish;

– o'quvchilarning kasbni go'zallik manbai sifatida tushunishlariga erishish.

Kasb ta'limining yana bir maqsadi o'quvchilarga qobiliyat nimaligini tushuntirib, ya'ni o'rgatib borishimiz kerak.

Kasb ta'limi darslarining maqsadi o'quvchilarga o'qitish jarayonida milliy qadriyatlar, kasb an'analari va o'zbek xalq xunarmandchiligidan keng foydalanish kerak. Kasb ta'limi darslarining o'zbek xalq xunarmandchiligi bilan quyidagi ketma –ketlik asosida qo'shib olib borish maqsadga muvofiqdir.

1. Amalda o'quv dasturi bo'yicha kasb ta'limidagi nazariy bilimlar mazmuniga o'zbek xalq hunarmandchiligiga oid ma'lumotlar kiritish.

2. O'quv dasturidagi bo'limlar bo'yicha o'quvchilar tomonidan tayyorlanishi lozim bo'lgan buyumlar ro'yhatiga har bir guruhdagi o'zlashtirishi lozim bo'lgan bilim va qobiliyat xajmiga mos ravishda sandiqsozlik, yog'och o'ymakorligi, misgarlik, naqqoshlik va boshqa xalq hunarmandchiligiga oid buyumlar yasashni kiritish;

3. Kasb ta'limi darslarida egallagan bilimlar asosida o'quvchilar xalq hunarmandchiligi turlari bo'yicha ijtimoiy foydali ishlab chiqarish kasbiga jalb etilishi lozim.

Kasb ta'limining asosiy maqsadi o'quvchilarni mehnatsevarlik ruhida tarbiyalashdir. Xalqning yashash vositasi bo'lgan mehnatsevarlik ham turli avlodlarda turlicha taraqqiy etgan. Jumladan halol mehnat qilish biror kasb – hunarni bilish jamiyatga foyda keltirish, o'quvchilarni kasbga o'rgatish, dehqonchilik, chorvachilik, xunarmandchilik bilan shug'ullanish, xalqimizning qon –qoniga singib ketgan an'analaridir. Bugungi kunda kasb-hunar kolleji o'quvchilarini milliy an'ana va urf –odatlardan, shuningdek, sharq mutafakkirlarining qoldirgan merosidan foydalanish muhim ahamiyatga ega.⁴

1.2. O'quvchilar ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda kasb ta'limining ahamiyati.

Kasb-hunar kolleji o'quvchilariga kasbning mohiyatini chuqur anglatish, ularda kasbga ongli munosabat, shuningdek, muayyan ijtimoiy foydali mehnat yoki kasbiy ko'nikma va malakalarini shakllantirishga yo'naltirilgan pedagogik faoliyat jarayoni bo'lib, ijtimoiy tarbiyaning muhim tarkibiy qismlaridan biri hisoblanadi. Kasb ta'limining shunday tashkil etish kerakki, kasb-hunar kolleji o'quvchilari kasb jarayoni va uning natijalaridan ko'maklashsin. Kasb ta'limining ahamiyati kasb-hunar kolleji o'quvchilarini

⁴ Boshlang'ich ta'lim jurnali. 2000 yil. 43-bet.

asosiy xislati sifatida uning kasbga bo'lgan ehtiyojini shakllantirishdir. O'quvchilarning ijtimoiy rivojlanishini ta'minlashda kasb ta'limi muhim shartlardan biri bo'lib hisoblanadi. Uning amalga oshirilishi davlat tomonidan olib borilayotgan ijtimoiy iqtisodiy siyosat mazmuni bilan belgilanadi.

Hozirgi davrda texnologiyalar rivojlanishini yuksak bosqichga ko'tarish uchun ishlab chiqarishni keng ko'lamda kompyuterlashtirish, iste'mol mahsulotlarini jahon standartlari darajasida ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish talab etilmoqda. Bularning barchasi yuksak intellektual va jismoniy kamolotga ega bo'lish, ishlab chiqarish jarayonining ilmiy texnikaviy va iqtisodiy asoslaridan to'laqonli habardor bo'lish kasbga ongli, ijodiy munosabatda bo'ladigan o'quvchilarni tarbiyalashni taqazo etadi. Bu esa, o'z navbatida boshlang'ich ta'limda kasb ta'limi va tarbiyasini tashkil etishda nisbatan ulkan talablarni qo'yadi.

Kasb ta'limini ahamiyati o'quvchilarda kasbga ongli munosabatni shakllantirishdir. Mazkur maqsadga erishish yo'lida quyidagi vazifalarni ijobiy hal etish maqsadga muvofiq:

- Kasb-hunar kolleji o'quvchilarida kasb qilish istagini qaror toptirish va ularni zamonaviy ishlab chiqarishning turli sohalarida faoliyat yuritishga tayyorlash;

- Kasb-hunar kolleji o'quvchilarida umumjamiyat manfaati yo'lida kasb qilish ehtiyojini hosil qilish;

- o'quvchilarni aqliy qobiliyatlarini rivojlantirish;

- o'quvchilarning mavjud bilimlarini uzluksiz ravishda takomillashtirib borishlari uchun zarur shart –sharoitni yaratish;

- o'quvchilarda mehant ko'nikma va malakalarini tarkib toptirish;

- o'quvchilar faoliyatida yuqori madaniyat, maqsadga intilish, tashkilotchilik, kasb intizomi, tadbirkorlik, tejamkorlik, ijodkorlik, ishni sifatli bajarish, moddiy boyliklarga ehtiyotkorona munosabatda bo'lish, hayotiy faoliyat yo'nalishini belgilash malakalarini shakllantirish;

– o’quvchilarda davlat iqtisodiy siyosati mazmuniga tayangan holda ular yashab turgan xududlar ishlab chiqarish xususiyatlariga muvofiq kasblarni egallashga bo’lgan qiziqishni oshirish;

“Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”⁵ ning asosiy talablaridan biri – o’tmish merosimizni o’rganish, qadriyatlarimizni tiklash va xalqimizning milliy madaniyati va ma’naviyatini o’quvchilar qobiliyatlarini rivojlantirishda davr talabiga monand qilib shakllantirishdan iborat. Avloddan –avlodga meros sifatida o’tib kelayotgan kasb–hunar egallash an’analari bugungi kunda kasb ta’limi oldida turgan vazifalardan biri sifatida qaralib kelinmoqda. Chunki o’qituvchilar o’quvchilarga kasb –hunar o’rgatish bilan bir vaqtda o’quvchilarni ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda kasb ta’limining ahamiyati orqali kasb-hunar kolleji o’quvchilariga ma’naviy – ahloqiy fazilatlarni, jumladan: Mehnatsevarlik, insonparvarlik, vatanparvarlik va shu bilan birga ahloqiy fazilatlarni, ya’ni, o’zgalar kasbini qadrlash, kattalarni hurmat, kichiklarni izzat qilish, kamtarlik –sahiylik, to’g’rilik va shunga o’xshash sifatlarni shakllatirib boriladi. Azal –azaldan o’quvchilarni ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishni o’quvchilar ongida kasbga muhabbat va kasbga qiziqishni shakllantirishdan birinchi navbatda xalq og’zaki ijodi namunalari asosiy vositalardan biri sifatida qaraladi.

Olimlarimizning olib borgan tadqiqotlarida ko’rsatilishicha, xalq ijodining o’zi qadimdan, qabilalarning mehnat qilish jarayonini zamirida paydo bo’lgandir. O’zbek xalq og’zaki ijodida xalqimizning mehnat qilish jarayonida yaratilgan eng yaxshi an’analari, tajribalari, mehnat qilish va kasb –hunar o’rganish sohasida paydo bo’lgan ko’nikma, malaka va odatlarni badiiy shaklda avloddan –avlodga ma’naviy axloqiy meros sifatida qoldirib kelingan. Kasb jarayonida paydo bo’lgan tajribalari ko’nikma va malakalari ajdodlarimiz tomonidan doima ulug’langan va xalq og’zaki ijodining barcha

⁵ “Boshlang’ich ta’lim jurnali” 2011 yi 1-son 26-bet.

janrlarida o'ziga xos o'rin egallab, va shu janrlar o'quvchilar ijodiy qobiliyatlarini oshirishda juda qo'l keladi deb o'ylayman.

Hunar –zar, hunarsiz –xor kabi xalq maqollarida, shuningdek, “Aql va boylik”, “Uch og'ayni botirlar”, “Otdan qolgan yaxshi me'ros”, “Chiranma g'oz –hunaring oz”, “har kimning kasbi o'ziga shirin” kabi bir qator xalq kasb egalari bilan uchrashuvlarida ham o'ziga xos ravishda ijodiy qobiliyatni ifodasini topganligini ko'rishimiz mumkin.

Kasb egalari bilan uchrashuvlar kasb-hunar kolleji o'quvchilarida mehnat qilish, hunar egallashga bo'lgan qiziqishini shakllantirish bilan birga kasb – hunar egalarining kasblarini shu qatorda o'quvchilarni ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda ham juda qulaydir. Kasb-hunar kolleji o'quvchilarini kasb – hunar haqidagi tasavvurni shakllantirishda har bir pedagog quyidagi bosqichlarda ishni tashkil qilish va amalga oshirish maqsadga muvofiqdir.

Birinchi bosqish o'quvchilarning kasb –hunarga bo'lgan qiziqishini o'rganishda avvalo ularni kasb –hunarga nisbatan qiziqishlarini aniqlab olish uchun o'quvchilar bilan suhbat, savol –javob, psixologik testlar olib borish mumkin. Shular orqali har bir o'quvchilarni ijodiy qobiliyatlari rivojlanib boradi. Shu bilan birga Kasb-hunar kollejilarning 1-bosqichida o'tiladigan “Odobnoma” darslarini vositasida bu yoshdagi o'quvchilarda kasb –hunarga qiziqishni shakllantirishga, o'quvchilarda ijodiy qobiliyatlarini shakllantirishda xizmat qiluvchi kasb egalari bilan uchrashuvlar va turli xil o'yinlar vositasida tarbiyaviy tadbirlar tashkil qilish maqsadga muvofiq.

O'quvchilar kasbning ko'rinishlari bilan juda erta qiziqqa boshlaydilar. Lekin ular kasb turlarining mazmuni haqida juda yuzaki ma'lumotga ega bo'ladilar. Kasb – tanlashni targ'ib qilish o'quvchilarning kasb turlari haqidagi tasavvurlarini kengaytirishi va qobiliyatlarini rivojlantirib borishi, kasbning u yoki bu sohasiga o'quvchilar yo'nalishi va intilishini

shakllantirishi va ijtimoiy hayot qonuniyatlarini tushunishlariga yordam berishi kerak.

Kasb –hunar tanlashni targ'ib qilishdan so'ng, o'quvchilarni qaysi kasb –hunarga loyiq, mos ekanligini o'rganish ishini boshlash zarurdir. Uning uchun ularning sog'ligi aqliy qobiliyati va qiziqishlarini aniqlashi lozim.

Kasb-hunar kolleji o'quvchilari bilan tanlangan kasb –hunarlari uning o'ziga hos murakkabliklari haqida suhbatlar uyushtirish, ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda kasbning ahamiyati, tanlangan kasblari eng to'g'ri ekanligini his eta olishga o'rgatish zarur.

Kasb-hunar darslari, tarbiyaviy tadbirlar orqali o'quvchilar ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda kasb ta'limining ahamiyati va shu orqali kasb –hunar to'g'risida ma'lumotlar berib borish. Kasb-hunar kollejlarning odobnoma darslariga kiritilgan kasbga oid hikoya, she'r, ertak, rivoyat, maqol va topishmoqlar vositasida kasb–hunarga qiziqishlarini, qobiliyatlarini shakllantirib borish. Darsliklarda kiritilgan xalq og'zaki ijodi namunalaridan foydalanib, o'quvchilarda kasb – hunar tushunchalarini shakllantirishga yo'naltirilgan texnologiyalar ishlab chiqish, ertak, rivoyat, doston, hikoya, maqol va topishmoqlar vositasida o'quvchilarda o'quvchilarga bo'lgan kasb –hunarga qiziqish Kasbga bo'lgan qobiliyatlarini rivojlantirib borish maqsadga muvofiqdir. O'quvchilar⁶ qalbida kasbga muhabbat, fidoyilik tuyg'ularini tarbiyalash borasida “Kasb ta'limi” fanidan DTS talablariga alohida ko'rsatib o'tilgan “Kasb” so'zi zahirida turli bilimlarni o'rganish, har bir o'quvchining qobiliyatlarini rivojlantirishda va qiziqishga yarasha kasb –hunar o'rgatish va xalq manfaati yo'lida biror ish bilan shug'ullanish singari ma'nolar yotadi.

Kasb tarbiyasi o'quvchilar qobiliyatini rivojlantirishda va shu qatori hayotga eng yaxshi yashash jarayonida faol ishtirok etish uchun garovdir. O'quvchilarni kasbga o'rgatish va qobiliyatlarini rivojlantirish jarayonida ularning imkoniyat darajalari va qiziqishlaridan kelib chiqqan holda unchalik

⁶ “Boshlang'ich ta'lim jurnali” 3/ 2011 yil. 30 –bet.

murakkab bo'lmagan vazifalarni bajarishlari ayni muddaodir. Zero, kasb ta'limi va tarbiyasini qo'llash orqali o'quvchilarni ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish juda qo'l keladi. Kollejning asosiy maqsadlaridan biri o'sib kelayotgan o'quvchilarni kasb faoliyatiga va qobiliyatlarini rivojlantirishga tayyorlashdir. O'quvchilar kasb tayyorgarligi ishlab chiqarishga qo'yiladigan umumtexnik talablar va kasbni tashkil etishning ilg'or metodlarini, qobiliyatlarini hisobga olmasdan amalga oshirilmaydi. Ishlab chiqarishdagi kasb faoliyati sharoitida mutaxassislikni egallash keng politexnik bilim va malakalar, qobiliyatlar mavjudligiga bog'liq bo'ladi. Bu borada birinchi qadamlar kasb o'rganishda amalga oshiriladi. Kollej o'quvchilarini nafaqat ishlab chiqarish, balki kasbning oddiy to'rlariga tayyorlashi va bundan uning har tomonlama o'quvchilarni ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishini ko'zda tutish lozim. Kasb ta'limining turli bosqichlarida bu umumiy vazifa turlicha hal etiladi. Kasb ta'limi umumtexnik ta'lim bosqichida o'quv –tarbiyaning maqsadi asosida amalga oshadi. Bu esa kasbning didaktik imkoniyatlarini kengaytirish va qo'llash sharoitini yaratadi. Kasb ta'limi va tarbiyasining maqsadi mehnatsevarlikni tarbiyalashdan, o'quvchilarni kasblar bilan tanishtirishda, o'quvchilarni qobiliyatlarini oshirishda, darslar va umumfoydali ishlarda hamda, ijtimoiy boylikka tejamkorlik bilan munosabatda bo'lish saboqlarini singdirishdan iboratdir. O'quvchilarda ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish avval oilada, ota – onaning shaxsiy namunalari asosida, keyinchalik kollejda kasb ta'limi darslarida, darsdan tashqari tadbirlar orqali amalga oshiriladi.

Kasbga oid darslarning quyidagi bosqichlarini maqsadli amalga oshirish o'quvchilar qobiliyatini rivojlantirishda ijodiy samara beradi.

1. Kasbga tayyorgarlik

- dars mavzusi va maqsadini bayon etish;
- buyum tayyorlash rejasini tuzish;
- Kasb materiali va ish qurollarini aniqlash;

– Kasb materiali va ish qurollarini tarqatish;

2. Kasb faoliyati hajmini belgilash. Bu jarayon turli yo'nalishda amalga oshirilishi mumkin:

– stolga faqat kerakli kasb materiali va ish qurollari joylashtiriladi. O'quvchilardan kasb materiali va ish qurollarining nomi va bajariladigan ish turini aniqlash talab etiladi. “Hozir nima yasaymiz”, “Nima uchun sen bunday o'ylayapsan?”

– ish turi “qog'oz”, “qaychi”, “yelim”, “albom”, “rangli qag'oz” so'zlari ifodalangan jadvallar asosida aniqlanadi. O'qituvchi “qirqamiz” deb o'quvchilarga murojaat qiladi. O'quvchilar unga mos keluvchi jadvalchani olib, kasb materiali va ish qurollarini tanlaydilar;

– o'qituvchi “Bizga qaychi va qog'oz kerak. Nima qilamiz?”, degan so'zlar bilan murojaat qilib ish boshlaydi;

– o'quvchilar ish turini yasaladigan buyum namunasiga qarab aniqlaydilar. Buyumni ko'rsatib, “Uni nomla” deya, uni nimadan tayyorlanganligini aniqlash taklif etiladi;

– yozilgan ko'rsatma asosida ish turi aniqlanadi;

– yasalishi maqsad qilingan buyum nomini topish vazifasi beriladi;

– yasagan buyum nima uchun kerak? U qanday qismlardan tashkil topgan? Savollari asosida kasb faoliyati aniqlanadi?

– jadvallarda ifodalangan vazifalar ketma –ketligi asosida Kasb faoliyati obyekti aniqlanadi.

3. Rejalashtirish.

Rejalashtirish darsning eng muhim qismi sanaladi. Masalan, milliy ko'ylak tasviri asosida applikasiya tayyorlashdan oldin, avval ishni nimadan boshlash kerakligini o'ylab chiqish kerak. Bu bosqichda o'qituvchining ko'rsatmasini eshitib, o'quvchilar o'zlari kasb faoliyati davomiyligini bayon etadilar.

Masalan;

- gazlamani o'zing uchun ol;
- rangini aniqlab gazlamani o'quvchilarga tarqat;
- Ibrohim, andozalar-kartonlarni o'quvchilarga tarqat;
- Ozoda, qaychi va andozani qizlarga tarqat;
- Qambarali, qaychi va andozani o'g'il bolalarga tarqat;

4. Buyum yasash.

Kasb darslari o'quvchilar hayotida zarur malaka, ko'nikmalarni shakllantirish va ijodiy qobiliyatini rivojlantirish uchun keng imkoniyat yaratadi. Dars jarayonida o'qituvchi o'quvchilarni “Tarqat!”, “Ol!”, “Joylashtir!” kabi so'zlar bilan muloqotga undaydi. Kasb faoliyati jarayonida o'quvchilar amalga oshirayotgan harakatlari va tayyorlagan buyumlari borasida hisobot beradilar. Kasb darslarida jamoa bo'lib ishlash o'quvchilar qobiliyatini yanada rivojlantiradi. Masalan, “Bizning ish joyimiz” maketi tayyorlashda qanday material zarurligi, ish qurollari va o'quvchilarning vazifasi aniqlanib olinishi kerak. Jamoa ishini tashkil etishda har bir o'quvchining individual xususiyatlarini hisobga olish darkor. Maket tayyorlash jarayoniga har bir o'quvchini jalb etish, dars yakunida har bir o'quvchi o'zini bajargan ishi bo'yicha hisobot berishi kerak. O'qituvchi o'quvchilar suhbatini boshqarib, hatolarini tuzatib boradi, o'quvchilarning kasbi natijasini baholaydi. Kasb-hunar kollejlarda umumiy kasb tayyorgarligiga asos solinadi. Kollej o'quvchilari o'rtasida to'g'ri yo'lga qo'yilgan kasb tarbiyasi, ta'limi va ijtimoiy foydali kasbdagi bevosita ishtiroki, ularning aqliy, axloqiy jihatdan shakllantirishiga, jismoniy rivojlanish, qobiliyatlarini rivojlantirishda bo'lishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Kasb tarbiyasini tadqiq etish, kasb tarbiyasi tayyorgarligining yangi dasturlarini yaratish imkoni mavjud.

Ushbu dasturga kasb fahriylari bilan uchrashuvlar, kasb mavzusidagi kitoblarni adabiyot va tahlil qilish –buyumlar fabrikasi, kollej bog'i faoliyati, buyumlar ko'rik tanlovi kabilarni kiritish maqsadga muvofiqdir. Bunda

o'quvchilar bevosita ishlab chiqarishda ishtirok etadilar: buyumlar tayyorlaydilar, ko'rgazmali qurollar yasaydilar. Kasb ta'limi tushunchasi mazmuni jismoniy va ma'naviy kuch – qudrat ko'rinishida o'quvchi shaxsi sifatlarini, qobiliyatlarini aniqlash tarbiyalashni ko'zda tutadi. O'quvchilar qobiliyatlarini rivojlantirish uchun material tanlashda o'quvchilarning yoshini, ularning rivojlanish xususiyatlarini, milliy qadryatlarimizni, tabiat ishlab – chiqarish va boshqa – boshqa shart – hisobga olish darkor.⁷

Kasb-hunar kolleji kasb ta'limi jarayonida o'quvchilarni ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda o'qituvchi eng avvalo dars –samaradorligini oshirishga e'tibor berishi kerak. O'qituvchi dars samaradorligini oshirishda zamonaviy yangi ilg'or pedagogik tajribalar didaktik vositalardan keng foydalanish kasb ta'limi va tarbiyasining birligini ta'minlashi o'quvchilarga turli kasblarga tegishli dasturni ko'nikma, kasbga qiziqish va mehnatsevarlikni shakllantirish kerak. Chunki jahonning ko'plab ilg'or mamlakatlari tajribasidan o'tgan yangi ilg'or pedagogik texnologiyalar dars maqsadini amalga oshirishdagi samarali yuqori ekanligi bilan ahamiyatlidir. Chunki bunda butun e'tibor o'quvchining faolligini, ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratiladi. Kasb-hunar kolleji o'quvchilarining ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda guruhdan tashqari ishlarni o'rni ham juda beqiyosdir. Bu yo'nalishda o'quvchilarning bo'sh vaqtlarini rejali tashkil etish, fani bo'yicha olgan bilimlarini mustahkamlashga mustaqil ravishda bilim olish yo'li bilan o'z dunyoqarashlarini o'stirishga, fan –texnika, san'at, sport, ishlab chiqarish, qishloq xo'jaligini tajribachiligi bilan qiziqishlarini oshirishga, ijodiy qobiliyatlarini oshirishga e'tibor qaratiladi. Kasb ta'limida o'quvchilarni ijodkorligini oshirishda va aniq tasavvurga ega bo'lishida ko'rgazmalilik alohida ahamiyatga ega. Har bir mashg'ulot zarur darajada ko'rgazmali usulda tashkil etish lozim. Bunda o'rganilayotgan mavzuni yaqqol tushuntirish uchun mavjud bir qancha ko'rgazmali vositalardan, shu

⁷ “Boshlang'ich ta'lim jurnali” 3/2011 yil 31-bet.

jumladan kompyuter imkoniyatlaridan unumli foydalanish hamda maqsadni to'g'ri tanlash ahamiyatlidir. Kasb ta'limi jarayonida ko'rgazmalilik eng qulay usul bo'lib, aniq tasavvurga ega bo'lishi, tushunishi, yodida qolish, ijod qilishi, ijodiy yondoshishga harakat qilishiga sharoit yaratadi. Ko'rgazmalilik dars samaradorligini oshiradi. Ko'rgazmalar, kitoblar, rasmlar, o'quvchilarning o'zlari yasagan ijod yoki mohir ustalar san'at asarlarini, video tasmalar, magnitafonlar va yuqorida aytib o'tilganidek kompyuturdan foydalanish maqsadga muvofiq. Iqtidorli o'quvchilarning namuna qilib ko'rsatish nafaqat o'quvchining o'zini rivojlantiribgina qolmay, iqtidor kurtagi bor bo'lgan o'quvchilarda ham qiziqish, qobiliyat hamda iqtidorni uyg'otadi. O'quvchining o'quvchilar ijodiy faoliyatiga e'tiborsiz qarashi va ularning ishlarini bo'lar –bo'lmasga tanqid qilaverish o'quvchilarning mazkur o'quv predmetiga qiziqishlarini oshirish o'rniga susaytiradi.

O'quvchilarni kasb jarayoniga tayyorlashda, ularning kasb jihozlari, kishilar bilan ongli va ishchan munosabatda bo'lishi talab etiladi. O'quvchilar kasb mahsulotlarini iste'molga chiqarishi, mazkur jarayonda tejamkorlik, uddaburonlik, ishbilarmonlik kabi qobiliyatlarini shakllantirishi ularni kasbga tayyorlashning asosini tashkil etadi va quyidagilarni amalga oshirishni maqsad qilib qo'yadi.

- o'quvchilarda kasb jarayoniga hamda kasbni yuzaga keltiruvchi kishilarga hurmatni shakllantirish;

- o'quvchilarni zamonaviy ishlab chiqarish, xalq xo'jaligiga xizmat ko'rsatish, qurilish, aloqa, mashinasozlik va xalq hunarmandchiligi asoslari bilan tanishtirish;

- o'quvchilarda umumkasb bilish, ko'nikma, malaka va qobiliyatlarini shakllantirish hamda ularni oddiy kasb jarayonida ishtirok etishga tayyorlash;

- o'quvchilarni kasb-hunar kollejlari jarayonida va uni bitirgandan so'ng turli xil yo'nalishlar bo'yicha qobiliyatlarini shakllantirib borish;

Kasb-hunar kolleji o'quvchilarining ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish va kasbga tayyorgarligi kasb-hunar kollejlari, kollejdanda tashqari ta'lim muassasalari oila, mahalla, ishlab chiqarish va mustaqil faoliyatda amalga oshiriladi, hamda qator vazifalarni bajarishni nazarda tutadi, kasb tayyorgarligining vazifalarini amalga oshirishda ta'lim va tarbiyaning rivojlantiruvchilik, ta'limiylik, amaliylik, yaratuvchilik, ishlab chiqaruvchilik kabi jihatlari nazarda tutiladi.⁸ Hozirgi davrda o'quvchilarni ijodiy qobiliyatlarini va o'quvchilarni shu orqali kasbga tayyorlashning vazifalari quyidagilardan iborat:

- o'quvchilarni adabiyot va kasbga bo'lgan ongli munosabatlarini shakllantirish, uning aqliy va jismoniy rivojlanishini ta'minlash;
- o'quvchilarda kasbsevarlik, ahloqiy fuqarolik, tejamkorlik, ijodkorlik kabi qobiliyatlarini tarbiyalash hamda ular faoliyatida kasbni doimiy ehtiyojga aylantirib borish;
- o'quvchilarda umumkasb ko'nikma va malakalarini shakllantirish, texnikaviy, texnologik, ishlab chiqarish, chizish va xunarmandchilik sohalari bo'yicha qarashlarni shakllantirish;

Fikrimcha o'quvchilarni kasbga tayyorgarligi hozirgi davrda kasb tarbiyasi va ta'limi, ishlab chiqarishda ishtirok etish hamda turli kasblarni egallash kabi jarayonlarni qamrab oladi.

O'quvchilar oddiy kasb turlari, kasb jarayonlari oddiy kasb qurollari bilan tanishish hamda oddiy ish harakat ish usullarini bajarishni o'rganadi. Xususan, ular kasb mashg'ulotlarini to'g'ri rejalashtirish ish o'rinlarini tartibli saqlash, texnika xavfsizligi qoidalariga rioya qilish kabi boshlang'ich kasbga bo'lgan qobiliyatlarini shakllantirishni nazarda tutadi hamda badiiy kasb bilan mujassamlashgan holda o'qitiladi. Yana bir narsa kasb faoliyatlarining turli sohalari amaliy kasb jarayoni bilan tanishishga imkon yaratiladi, ular xaridorgir mahsulotlarni ishlab chiqarishga o'rgatiladi. Mana

⁸ "Maktab va hayot" jurnali 2011 yil 2-bet.

shunda ham o'quvchilarni qiziqishi ortib boradi va shu qatori ularni qobiliyatlari rivojlanadi. O'quvchilarda kasbga ongli va ijodiy munosabatlarni tarbiyalash, kasb tarbiyasining vazifasi hisoblanib, u mustaqil O'zbekiston fuqarosi ahloqiy qiyofasining asosiy xususiyati. Har bir ishchi va dehqon, ziyolilar o'z hayotini mehnatsiz tasavvur qila olmaydi. Madomiki shunday ekan, bu jarayon kasbga ongli munosabatda bo'lishni, kasbning jamiyat uchun foydali ekanini anglash, kasb topshiriqlarini ixtiyoriy qiziqish orqali kasbning ilg'or uslublari va zamonaviy texnik vositalari yordamida bajarish bilan ifodalanadi. Shunday ekan ustaxonalarda o'quvchilar bilan izchil va rejali ravishda kasbga ongli munosabatni shakllantirish zarur. Kasb topshiriqlarini bajarishda o'quvchilarning javobgarlik mas'uliyatlilik kabi fazilatlari shakllantiriladi. O'quvchilar intizomga qat'iy amal qilgan holda, mehnat qilishga bo'lgan qobiliyatlarini rivojlantiriladi, davlat mulkiga nisbatan g'amxo'rlik munosabati tarbiyalanadi va kasbga ongli ijodiy munosabatni shakllantirish bilan uzviy bog'liq bo'ladi. Kasb ta'limida o'quvchilarni ijodkorligini oshirishda quyidagi jarayonlarga e'tibor berish kerak.

II bob. Kasb ta'limi jarayonida o'quvchilarni ijodiy faoliyatini oshirish.

2.1. O'quvchilar ijodkorligini oshirishda fanlararo bog'lanishning ahamiyati.

Kasb-hunar kollejida turli xil fanlar aloqadorligi juda katta ahamiyat kasb etadi. Keyingi yillardagi kuzatishlar shuni ko'rsatdiki, o'quvchilarga Kasb darslarida bilimlar yetarlicha berilmayapti. O'simliklar hayoti va ular yashayotgan muhitni yaxshilash bo'yicha olib borilayotgan ishlar ko'ngildagidek emas. Biologiya darslarini o'tishda o'quvchilar ko'proq antropogen olimning tabiatga salbiy ta'sir etishga misol keltirishadi. Mening fikrimcha, darslar negativ misol ustunligida o'tmasin, aksincha, bu borada muammolarning bartaraf etishga o'quvchilarimizni ham ruhan, ham jismonan tayyorlaylik, toki ular kelgusida bunday qiyinchiliklardan cho'chishmasin. Bunga avvalo, tabiat yo'nalishidagi kasbni to'g'ri yo'lga qo'yish orqali erishish mumkin. Aynan shu tabiat yo'nalishidagi kasb vositasida o'quvchilar tabiatga ta'sir etishning ijobiy yo'llarini o'rganadilar va bu o'z navbatida biologiya bilimlarni mustahkamlashga keng imkoniyatlar yaratadi.

Biologiya yo'nalishidagi kasbni shakllantirish yo'llari:

Darslarda:

Tabiat kasb faoliyatiga yo'naltiruvchi masalalar yechish:

Darsdan tashqari ishlarda:

Biologiya fanidan sof qishloq xo'jalik mahsulotlari yetishtirish bo'yicha bilimlarni egallash, o'quvchilarda fanga nisbatan ijodkorligi oshadi.

O'g'itlarning tabiatga oid usullarini o'rganish va sinab ko'rish:

Shu borada musiqa fanini oladigan bo'lsak: ma'naviy merosimiz xazinalaridan bo'lganqo'shiq va musiqa sabog'i o'quvchilarda fidoiylilikni, tashabbuskorlikni, mehnatsevarlikni tarbiyalovchi vositadir. Bu fikr – mulohazalardan kelib chiqib quyidagi qo'shiqlarni tavsiya etaman. “Do'ppi tikdim”, “Kigizim” singari kasbga oid qo'shiqlarni izohlab berish

o'quvchilarni xalq urf – odatlari va an'analari asosida, mehnatsevarlik ruhida tarbiyalash muhim ahamiyatga ega. O'quvchilar yanada kasb fani orqali musiqa faniga qiziqishi ortadi va shu qatori ijodkorligi yanada shakllanib boradi.

Xullas, o'quvchilar ma'naviyatiga katta berilayotgan hozirgi davrda milliy kasb an'analarini chuqur o'rganish, ulardan ta'lim –tarbiya ishida keng foydalanish dolzarb vazifaga aylanib bormoqda shu borada o'quvchilarni fanlar aro qiziqishlari, ijodkorligi yanada shakllanib boradi. Natijada o'quvchilar kasb inson baht saodatining ma'naviy va ahloqiy manbai har qanday inson mehnat qilmog'i va kasbni sevmog'i lozim, degan xulosaga keladi. Shuningdek o'quvchilarda o'quvchilar o'zi uchun emas, jamiyat uchun mehnat qilishlari kerak, kasb kishilari va ular yaratgan buyumlarga nisbatan xurmat bilan qarash lozimligi haqida tasavvurga ega bo'ladilar.

Tasviriy san'at darslarida ham o'quvchilarda kasb tarbiyasini amalga oshirish uchun katta imkoniyatlar mavjud. Bu tasviriy san'at darslarining barcha turlari naturadan rasm chizish temaning rasm ishlash, san'at haqida suhbatlar ko'zda tutilgan. Narsaning o'ziga qarab rasm chizish jarayonida o'quvchilar turmushda qo'llaniladigan turli buyumlar, sabzavot va mevalar, duradgorlik buyumi tasvirini ishlaydilar. O'qituvchi dars jarayonida o'quvchilar mustaqil ish boshlamaslaridan oldin naturani qisqacha tahlil qilib, faqat buyum shakl rangi va tuzilishi haqidagina emas, balki ularni yaratish uchun sarflangan katta kasb haqida ham gapirib beradi.

“Biz o'z iste'dodli, fidoiy o'quvchilarimizga bilish va kasb cho'qqilarini zabt etish uchun qanot berishimiz kerak”. Yurtboshimiz o'quvchilarimizga ilk yoshdanoq kasb – hunar o'rgatish, mustahkam bilim berishimiz naqadar zarur ekanligini juda ko'p ta'kidlab o'tadilar.

Darhaqiqat O'zbekiston Ruspublikasi mustaqillikka erishgandan keyin, xalqimizning o'z yurti madaniyatini yuksaltirishga, milliy qadriyatlarimizni, an'analarimizni tiklashga e'tibori kuchaydi va bunga keng

imkoniyatlar yaratildi. Shu boisdan ham jamiyatning kelajagi bo'lgan yosh avlodni dunyoviy bilimlarni chuqur singdirish va ularni kasb – hunarlarga o'rgatish bilan bir qatorda, adabiyot fanidan kasb an'analari vositasida kasbga qiziqish va yuksak ma'naviyati o'quvchilar qilib tarbiyalash dolzarb vazifa bo'lib qoldi. Bu borada adabiyot fanidan sharq – mutafakkirlari yaratgan o'lmas asarlarni o'rganish bugungi kunda muhimdir. Ularning axloq –odob haqidagi dono fikrlari o'quvchilarda mehnatsevarlik, vatanparvarlik, tashabbuskorlik, fidoyilik, singari olijanob fazilatlarni tarbiyalashda asosiy omillardan bo'lib hizmat qiladi. Bu o'rinda Ahmad Yassaviy, Alisher Navoiy, Abu Rayxon Beruniy kabi allomalarning ma'rifiy pedagogik va didaktik qarashlari ichida o'quvchilarni kasbsevarlik ruhida tarbiyalash haqidagi fikrlarining ahamiyati cheksizdir. Abu Rayxon Beruniy kasbni ulug'laydi. Kasb tufayli ilmiy yodgorliklar bunyod etilishini ta'kidlaydi. O'quvchilarga kasb – hunar, kasb tarbiyasini berish, kasb an'analari, urf – odatlarini o'rganish havo bilan suv kabi zarurligi, ularning kelajagi shu bilan bog'liq ekanligi to'g'risida ta'lim beradi. Abu Rayxon Beruniy “Geodeziya” asarida: “Insonning tilak va xoxishlari kasb tufayligina amalga oshirilishi mumkin” – deydi. “Minerologiya” nomli kitobida: “Kasbsiz shon – shavkatga, martabaga erishgan kishi hurmatga loyiqmi? Yuqori martabaga kasbsiz erishgan kishi rohat va farog'atga yashaydi, yaxshi kiyinadi, ammo ulug'lik libosidan mahrum, yolong'ochdir” – deb aytadi. Bu borada o'quvchilarni qunt bilan ishlashga, sabr – toqatli, irodali, ayni chog'da kasbsevar bo'lishga chaqiradi va ularda adabiyot faniga bo'lgan qiziqishlari va ijodkorligi tobora shakllanib boradi. Mening nazarimda ham o'quvchilarga ta'lim – tarbiya beradigan murabbiylar dastlab o'zimizning milliy qadriyatlarimiz va o'tmishimizning boy an'alarini batafsil o'rgangan bo'lishlari, shular asosida o'zlarining ishlarini tashkil etishlari kerak bo'ladi. Xunarmandchilik ustaxonasida ochilgan to'garaklarda kasbkorga bo'lgan mayl, qiziqish va muhabbat

uyg'onadi. O'quvchilar hunar sirlari va mahoratlarining qirralarini bosqichma –bosqich egallab boradilar.

O'quvchilarni ijodkorligini oshiribgina qolmay, fanlararo bilim va tafakkurini balki kasb-hunar kolleji o'quvchilarini vatanparvarlik, insonparvarlik, mard va jasur, aql –idroqli mehnatsevar qilib tarbiyalash sifatlariga ega qilib o'stirishdir. O'quvchilarni tarbiyalash va o'qitish nazariyasi bilan amaliyotining qanday taraqqiyot qilib kelganligini bilmay turib o'quvchilarni har tomonlama komil inson etib tayyorlash masalalarini ilmiy ravishda hal qilib bo'lmaydi. Bu ajdodlarimiz tomonidan isbot qilingan, ilmiy – nazariy, falsafiy –tarbiyaviy haqiqatdir. Shu o'rinda kasb ta'limida o'quvchilarni ijodkorligini oshirishda boshlang'ich kollejda butun ta'lim tarbiya sistemasini hamda barcha o'quv predmetlari yordamida hal etiladi. Bu o'rinda kasb darslari yetakchi ro'l ishlatadi. Shunga ko'ra har bir kishining hayotga tayyorlash, tarbiyalashda aniq o'zgarishlar qilinishi lozim.

Shuningdek o'quvchilarni uyushtirish, bilimlarni o'zlashtirishga qiziqtirish va mustaqil bilim olishga odatlantirish, kuzatuvchanlik, ijodkorlik qobiliyatlarini o'stirish ishlarining hammasi o'quvchilarning yanada fanlar aro ijodkorligini shakllantirib boradi. Ana shu ishlarni amalga oshirishda adabiyot va kasb darslarini muhim imkoniyatlariga ega. Adabiyot va kasb darsliklarida o'quvchilarning kasb faoliyatlari va jasoratlarini yorituvchi asarlar, rasmlar ularning qismlari muhim o'rin olgan. Bu darslarda vatanparvarlik tarbiyasini ta'limning dastlabki bosqichlaridanoq boshlanadi. Adabiyot darslari davomida o'qituvchi o'quvchilarni vatan haqida, uning boyliklari, haqida ko'proq bilimga qiziqtirib borishi kerak. Vatanimizni sevish bilan birga uning boyliklarini ortirib borish, buning uchun esa har bir o'quvchi foydali kasbga o'z unumini qo'shishi jamiyat ishlariga ongli va qiziqishi bilan ishtirok etishi zarurligi o'rgatib o'tiladi. Darslarda turli millat o'quvchilariga va ularning do'stligi haqidagi yozilgan hikoyalarini adabiyot jarayonida ahillik g'oyalari singdirib borilib, kasb darslarida esa

tayyorlanayotgan buyumlarga did bilan e'tibor qaratilmog'i lozimligi uqtiriladi. Tabiatdagi turli o'zgarishlar, fazoni o'rganishga oid ishlar haqidagi hikoyalarni adabiyot jarayonidagi o'quvchilarning dunyoqarashi shakllanib boribgina qolmay, kasb darsi davomida ham tabiatning voqea hodisalarini tushuntirib o'tishimiz mumkin: Bu orqali o'quvchilarni har tomonlama yetuk o'quvchilar qilib voyaga yetkazishda nafosat tarbiyasi muhim o'rin tutadi. Nafosat tarbiyasi faqat adabiyot darsida badiiy asarlarini adabiyot orqali emas balki kasb darslarida ham tabiiy materiallar tayyorlashda amalga oshirilishi mumkin: "Adabiyot kitobi" darsliklari uchun manba tanlashda uch tomonlama mulohaza qilingan: asar mazmuni, uning yozilishi tili va hajmi hisobga olingan. Kasb darslarida esa o'quvchilarning yoshini hisobga olib tashkillashtiriladi, hamda asta – sekin murakkablashtirib boriladi. Bunig natijasida o'quvchilar fikri ham asta - sekin kengayib boradi. O'rganiladigan asar turi, unda yangi so'z va iboralarning bo'lishi o'quvchilar ijodkorlik qobiliyatini, tayyorlayotgan buyumlarning sifat doiralari shakllanib, boyitib borishga yordam beradi. O'rganiladigan asarlarning turlarini xillashtirib borish orqali undagi tasviriy vositalarni ham tushuntirishga undaladi. Darslik manbalari tarkibiga ko'ra birinchi guruhdan o'rganilganlar undan keyingi guruhlarda kengaytirib boriladi va takrorlash darslari o'tkazilib turiladi. Shundagina o'quvchilarni fanlar aro ijodkorligini, faolliklari, aktivliklari o'z ustida ishlashga o'rganishlarini mustaxkamlashimiz mumkin. Adabiyot va kasb darslaridagi ish turlari ham asta – sekin takomillashib va ifodali adabiyotga o'rgatish, adabiyot darslarida tarbiyaviy maqsadlarini amalga oshirish kollejning barcha bosqichlarida ham muhim vazifalardan biri hisoblangan.

O'quvchilarning ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantirish va ularni kasb faoliyatiga tayyorlashda predmetlar chizmasini chizishda tasvirlarni yetarli darajada tanlash masalasiga alohida e'tibor berish kerak. Ma'lumki san'atdagi ishlab chiqarish sharoitidagi tayyorlangan buyumlar ularning chizmalari

bo'yicha nazorat qilinadi. Detalning xom – ashyo holatidan uning tayyor mahsulot darajasiga qadar bosib o'tgan yo'lida chizma detallar yonma – yon beradi. Ammo kuzatishlar kollejlarda bu soha chetlab o'tilyotganini ko'rsatmoqda. Bu kamchiliklarning hatto o'qitish amaliyotiga bag'ishlangan metodik tavsiyalarda ham ko'rish mumkin. Kasb ta'limi metodikasiga doir ko'pgina adabiyotlarda yasaladigan obyektlar chizmasiz tavsiya etiladi. Natijada chizmaning moddiy ishlab chiqarishdagi ro'li yo'qolib, o'quvchi detalni namunaga qarab yasashga va nazorat qilishga majbur bo'ladi. Bunday nazorat qilishga majbur bo'ladi. Bunday nuqsonni tuzatish kechiktirib bo'lmaydigan vazifalardan biri bo'lib, u chizmachilik o'qituvchisi bilan kasb ta'limi o'qituvchisi zimmasiga yuklanishi kerak.

2.2. O'quvchilarni ijodkorlikka o'rgatishda turli materiallar bilan ishlashning o'rni.

Tarbiyada muhitning o'rni beqiyosligidan kelib chiqib, biz kasbning tarbiyadagi o'rnini o'quvchini asosan yoshlik davri misolida ko'rsatib o'z fikrimni bildirmoqchiman. O'quvchilarni kasbga tarbiyalash uning mehnatsevarlik xususiyatlarini shakllantirish bu nafaqat jamiyat uchun yaxshi yoki yomon fuqaroni tarbiyalash, balki uning kelajak hayotiga zamin yaratish demakdir. O'quvchilarga aniq qilib, buyumlarning butunligi, ular saqlanadigan va bola buyumlarni ishlatadigan joyda tozalik va tartib bo'lishini ta'minlash lozimligini uqtirish mumkin. Mazkur topshiriqni umumiy ko'rinishda toza bo'lishi kerak, buyumlar sochilib yotmasligi kerak, buyumlarda chang bo'lmasligi lozim kabi usulda berish mumkin.

Qog'ozdan mozaika usulida quyidagi mavzuda amaliy mashg'ulot dars ishlanmasini tavsiya etaman.

Mashg'ulotning borishi

I. Tashkiliy qism:

1. Salomlashish
2. Davomatni aniqlash
3. Uy vazifasini tekshirish va baholash
4. Ish joyini tayyorlash (kerakli ish qurollari va materiallari bilan ta'minlash).

II. Asosiy qism

Aqliy xujum

O'quvchi mashg'ulotning boshlanishida o'quvchilarni mozaiki usuli haqidagi bilim va tasavvurlarni savol – javob orqali aniqlaydi.

a) Mozaika usuli nima?

b) Qog'oz bo'laklari nima yordamida yopishtiriladi?

Yangi mavzu bayoni

O'qituvchi mozaika haqida ma'lumotlar beradi. Hozirgi kunda mozaika bilan binolarning tashqi qismlari, devorlari va xalq amaliy san'ati asarlarini bezatishda bundan tashqari oyna, savollardan foydalanish, jumladan qog'ozdan mozaika usulida turli buyumlar, mevalar shaklini yasash mumkinligi to'g'risida tushuntiradi.

O'qituvchi O'zbekistonda yetishtiriladigan meva turlari to'g'risida so'raydi.

O'zbekistondar qanday mevalar yetishtiriladi?

– olma, shaftoli, o'rik

– nok, gilos, anor, olcha

– anjir, uzum, olxo'ri, xurmo va boshqa mevalar.

Demak, O'zbekistonda juda ko'p mevalar yetishtirilishi haqida ma'lumotga ega bo'ladilar.

Rangli qog'ozlardan mozaika usulida mevalar shaklini yasash.

1	Mashg'ulotning maqsadi	1. Ta'limiy maqsadi: O'quvchilarda mozaika usuli haqidagi bilim va tasavvurlarni hosil qilish mozaika usulida mevalar shaklini yasashga o'rgatish. 2. Tarbiyaviy maqsad: mozaika sanata qiziqish uyg'otish. O'z kasbidan qoniqish va zavqlanishga o'rgatish. 3. Rivojlantiruvchi maqsad: Qog'ozni mayda qirqish, yelimlash orqali mozaika usulida yasay olish malakalarini rivojlantirish.
2	Mashg'ulotning jihozlari	1. Ko'rgazmali vositalar: mozaika ishlaridan namunalar, meva rasmlari, mozaikani yasash bosqichlari, slaydlar. 2. Ko'rgazmali jihozlar: Rangli qog'oz to'plami, qaychi, qalam, chizg'ich, yelim, latta.
3	Mashg'ulot jarayonini amalga oshirish texnologiyasi	1. Uslub: Og'zaki bayon qilish, tushuntirish, tahlil qilish, aqliy xujum. 2. Shakl: Amaliy mashg'ulot savol va javob. 3. Baholash: Rag'batlantirish, besh balli tizimda baholash.
4	Mashg'ulot jarayonini amalga oshirish bosqichlari	1. Tashkiliy qism: 10 daqiqa a) darsga hozirlik ko'rish. 3 daqiqa b) Uyga vazifani tekshirish 7 daqiqa 2. Asosiy qism 25 daqiqa Aqliy xujum 5 daqiqa Mavzuni bayon qilish 5 daqiqa 3. Yakuniy qism 10 daqiqa O'quvchilar bilimini baholash 6 daqiqa Uyga vazifa berish 2 daqiqa

	Ish o'rnini tozalash 2 daqiqa
--	-------------------------------

Ularning mazasi qanday

- olma, anor, olxo'ri, olcha, shirin va nordon bo'ladi.
- xurmo shaftoli, anjir, nok, o'rik, gilos, uzum shirin bo'ladi.
- bu mevalarning inson uchun foydasi nimada?
- mevalar vitaminlarga boy, inson sog'lig'i uchun foydali.

Ularning shakli, rangi xilmi?

- yo'q ularning shakli va rangi turlicha bo'ladi

Demak har bir meva o'z shakliga, o'z mazasiga, o'z rangiga ega bo'larkan to'g'rimi?

- ha

Navbatdagi ish bolalar bilan sariq rangli qog'ozni maydalab mazayka usulida nok shaklini yasashni o'rganish. Bu amaliy mashg'ulotda quyidagi ish bosqichlarini bajaring

--

1 – bosqich

Rangli qog'oz tanlab olamiz.

O'qituvchilar mashg'ulot jarayonida o'quvchilarga kerakli ko'rsatmalar berib, amaliy mashg'ulot jarayonini nazorat qilish talab etiladi. Yaxshi bajarilgan ishlardan namunalar ko'rsatib tegishli amaliy yo'l yo'riqlari beriladi.

--

Qog'ozni turli uchburchak shakllarda qirqib olamiz.

2– bosqich

--

Nokning rasmini chizib oling

3 –bosqich

Maydalangan qog'oz bo'laklarini rasmga yopishtirib chiqing.

4– bosqich

III. Yakuniy qism:

1. Mashg'ulot ohirida tayyor bo'lgan ishlarni o'quvchilar bilan birgalikda tahlil qiling.
2. Har bir o'quvchini bajargan ishlariga qarab izohli baholang.
3. Mozaika usulida olma shaklini yasashni uyga vazifa qilib bering.
4. Ish o'rni tozalanadi.¹

Ma'lumki o'quvchilarni ijodkorlikka o'rgatishda kasb darslari jarayonida o'quvchilar narsalar yasash ularga ishlov berish kabi ish usullarini o'zlashtiradilar. Qog'oz va karton, gazlama, tolali materiallar bilan ishlash badiiy ko'rish – yasash, texnik modellashtirish vazifalarini bajarish ajdodlarimiz kasbi mahsulotlariga hurmat bilan qarash va shu orqali ularga vatanparvarlik hislarini uyg'otish omillaridan bo'ladi. O'quvchilar kasb darslarida badiiy kasb asoslari bilan ham tanishib boradilar. Bunda ularning tasavvuri ijodiy qobiliyati o'ziga xos qiziqarli buyumlarni yasay olish malakasi ham turli materiallar bilan ishlash malakalari ham rivojlanib boradi. Buyumlarning ta'sirchanligini oshirishda turli chiqindi materiallardan foydalanish ham yaxshi natija beradi. O'quvchilarning ijodkorlikka o'rgatishda tabiiy materiallarning o'rni juda katta. Tabiiy materiallarni to'plash o'quvchilarning o'qituvchi rahbarligida sayohatlari vaqtida amalga oshiriladi. Sayohatdan avval ularga qilinadigan ish namunasi ko'rsatiladi. O'quvchilar uni diqqat bilan kuzatib, yasaladigan buyum nimadan iborat bo'lishini, uning shaklini aniqlaydilar. Sayohat vaqtida o'quvchilarning e'tiborlari va aqliy faoliyatlari, ijodkorligi kuzatilayotgan obyekt – yangi bog'

¹ “Maktab va hayot” jurnali 2. 2011 yil 17 –bet.

daraxtzor ekinzorlarning zarur bo'lgan asosiy muhim belgilari va xususiyatlarini ajratishga jalb etiladi. To'planayotgan materialni to'g'ri baholashga yo'llaydigan savollar tuziladi. Bu jarayonda o'quvchilarning e'tibori o'simlikning shakli, ularning navlariga qaratiladi. O'simliklarda sodir bo'ladigan ichki jarayonlar qisqa va tushunarli, shu bilan birga qiziqarli tarzda bayon etib beriladi. Shundan so'ng atrofdagi qushlar, jonivorlar, ninachi, chumoli singari xashorotlar, ularning xususiyatlari odoblari haqida hikoya qilinadi. SHunday qilib ham o'quvchilarni ijodkorlikka o'rgatishda turli materiallar bilan ishlashning o'rni qanday ekanligini bilib oladilar va yana o'quvchilar daftarlariga zarur bo'lgan o'simliklarning rangi, shaklini bir – biri bilan qiyoslashni o'rganadilar, bu ularning kuzatuvchanligini o'stirishda yordam beradi. Sayohat davomida o'quvchilar insonning yaratuvchanlik kasbi hayotda qanday asqotishini tushunib yetishlari kerak. So'ng kuzatuvlarga yakun yasali, egallangan bilimlar umumlashtiriladi. Bulardan tashqari, o'quvchilarga qushlar va tabiatdagi o'simliklarning rasmlari ko'rsatiladi, ularning tanasi, bargi, qanotlarining shakli, rangi qandayligiga alohida e'tibor tortiladi. Bularning bari o'quvchilarning tabiiy materiallardan turli buyum va buyumlar yasashlarida qo'l keladi.

Shunday qilib, avvalo o'qituvchi buyum tasvirlangan plakatni doskaga ilib qo'yadi. O'quvchilar ana shu namunaga qarab o'z vazifalarini belgilab oladilar. Shundan so'ng ishni bajarish tartibi aniqlanadi.

O'quvchilarni ijodkorlikka o'rgatishda turli materiallar bilan ishlashda oddiydan murakkabga yo'naltirilsa olib borilsagina o'quvchilarning ijodkorligi yanada shakllanib boradi.

O'quvchilarining ijodkorlikka o'rgatishda tabiiy materiaal bilan ishlashda ayrim kasblarda ishlatiladigan buyumlar nomlarini va nima maqsadda ishlatilishini bilish, yog'och materiallar olinadigan daraxtlarni tanish va ularning nomlarini bilish, ayrim gazlama turlari nomi, xususiyatlarini va ulardan tayyorlanadigan buyumlarning bilish, pazandalikda

ishlatiladigan maxsulotlarning turlari va nomlari nima maqsadda ishlatilishini bilish; qandolatchilikda ishlatiladigan hom ashyolar va tayyorlanadigan maxsulotlarni bilish; qurilish sohasida ishlatiladigan materiallar nomi, ayrim xususiyatlari va kartondan eng oddiy shakldagi buyumlarni qirqib tayyorlash ularning rasmini chizish, bo'yash hamda eng oddiy naqshlar bilan bezash; tugma qadash eng oddiy choklarni tikish, gazlamalarning qirqishni bilishlari lozim. Shu qatori turli materiallar bilan ishlashda ayrim kasblar maxsulotlari yoki tayyorlanadigan buyumlar eskizlarini chizish va oddiy bezaklarni ishlash, bir necha kasblar sohasida ishlatiladigan buyumlar – kasblar sohasida ishlatiladigan buyumlarning tuzilishi hamda ishlatilishini bilish; ayrim tabiiy materiallardan oddiy tasvir va naqshlar tuzish; yog'och materiallarning qattiq – yumshoqligi, egilish - sinishga, suvga, zahga va boshqa ta'sirlarga chidamliligini bilish; gazlamalarning haroratga saqlanishga chidamliligi, turli gazlamalarning har xil ta'sirlari natijasida o'zgarishlarini bilish; Tuproq, loy, sopol va boshqa materiallarning asosiy xususiyatlarini bilish; oziq – ovqat mahsulotlarining eng oddiy xususiyatlarini bilish; qog'oz va karton gazlamalarini qirqish va kesish buyumlaridan to'g'ri foydalanish; kashtachilik va tikuvchilikda qo'llaniladigan asosiy chok turlaridan tikish; ayrim ekinlarni o'stirish va chorva mollarini bosishning eng oddiy qoidalarini bilishlari kerak. Turli materiallar bilan ishlashda har xil oddiy buyumlar va mahsulotlar tayyorlash jarayonlari ketma – ketligi hamda xom ashyoning bilish; Ularni so'zlar va turli tasvirlar, jadvallar orqali ifodalay olish; ommaviy ishlatiladigan kasb qurollarining turlarini va ulardan to'g'ri foydalanishni bilish; ayrim oddiy buyum va mahsulotlarni tayyorlash uchun eskizlar chizish, qog'oz va karton, gazlama va boshqa materiallardan oddiy shakldagi gullar yasash. Sopol buyumlar va kashtachilik buyumlari uchun oddiy naqshlar ishlash, eng oddiy aplikatsiya va mozaika ishlarini bajarish; ayrim milliy xunarmandchilik kasblarida ishlatiladigan materiallar hamda buyumlarning nomi turlari va xususiyatlarini bilish, ulardan xavfsizlik

qoidalariga muvofiq foydalanish milliy xunarmandchilik kasblariga oid eng oddiy iqtisodiy huquq va ekalogik masalalarni bilish; loydan milliy buyumlar yasash, ularni bo'yash va naqshlar bilan bezash; yog'och va bosh va har xil materiallardan oddiy buyumlar va buyumlar yasash; gazlamalardan oddiy buyumlarni tikish va kashta naqshlar bilan bezash; pazandalik va qandolatchilikning ayrim texnologik jarayonlarini bajarish; o'simlik chorva mollari va parrandalar yetishtirishga doir ayrim qazifalarni bajarishda o'quvchilarni ijodkorlikka o'rgatishda juda ham qo'l keladi.

Yog'ochdan oddiy buyumlar tayyorlash jarayoni uchun texnologik jadval hamda grafik tasvirlarni bajarish; oziq – ovqat tayyorlash jarayoni uchun texnologik jadval hamda ayrim oziq - ovqat mahsulotlarini turli shakllarda tayyorlash uchun eskizlar chizish, turli shakllarning bir – biriga nisbatan o'lchami, rang va bezaklar bo'yicha mutanosibligini tushunish va so'zlab bera olish; zargarlik, gilamdo'zlik, kulolchilik va boshqa kasblarda naqqoshlikdan foydalanishning eng oddiy usullarini bilish; ayrim kasblar sohasidagi materiallarga ishlov berishning zamonaviy usullari va buyum – uskunalarni bilish, ayrim ish harakatlarini bajarish ko'nikmalarini egallash:

Har xil materiallardan ko'p xunarmandchilik buyumlari va buyumlar tayyorlash, ko'ylaklar tikish va kashta gullari bilan bezash, taomlar pishirish uchun sabzavotlar tayyorlashni bilish o'quvchilarni ijodkorlikka o'rgatishda qulay deb o'ylayman.

Xullas, shunday qilib turli materiallar bilan ishlash jarayonida o'quvchilarni ijodkorlikka o'rgatish, ijodiy qobiliyatlarini oshirish juda ham muhimdir.

Turli materiallar bilan ishlashda o'quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini uyg'otadi, fantaziyasini va tasavvurlarining o'stiradi. Turli materiallar bilan ishlash ta'lim – tarbiyani hayot bilan bog'lashning eng muhim vositalaridan biridir. Kasb ta'limining amalga oshirishda o'quvchilarning har tomonlama o'sishiga ularni ijodkorlikka o'rgatishda yordam beradi. Shuningdek, turli

materiallar bilan ishlash o'quvchilarning bilimlarini aniqlashtirishga yordam beradi, tarbiyaviy jihatdan muhim bo'lgan solishtirishda keng imkoniyatlar yaratadi, dars va darsdan tashqari mustaqil ishlarni tashkil etishga sharoit yaratadi, tabiatga nisbatan muhabbat uyg'otadi.

2.3. Guruhdan tashqari ishlar jarayonida o'quvchilar ijodkorligini oshirish yo'llari.

Hozirgi paytda fan va madaniyatning eng so'nggi yutuqlari asosida kelajagimiz bo'lgan yosh avlodni hayotga tayyorlashning samarali usulini ishlab va ularni amalga oshirish muhim ahamiyatga ega.

Inson shaxsining kamol topishi juda murakkab hayot jarayonida shakllanadi. Uning tarbiyasida ota – onasi, kollej, mahalla, do'stlari, ijtimoiy muhit, adabiyot, tabiat va boshqalar bevosita ta'sir qiladi. Kasb-hunar kolleji o'quvchilarini ma'naviy – axloqiy, umrboqiy qadriyatlar ruhida tarbiyalashda dars bilan bir qatorda guruhdan va kollejdən tashqari o'tkaziladigan tadbirlar ham katta ahamiyatga ega.

Guruhdan va kollejdən tashqari ishning samaradorligini oshirishning eng zamonaviy va qulay yo'nalishlarini topib joriy etishdilar. Zero bunda o'quvchilarning qiziqishlari, istaklari, hohishlari va ehtiyojlari hisobga olinadi. U o'quvchilarning ijodiy qobiliyatlari va tashabbuskorligini oshirishga imkoniyat yaratadi. Guruhdan va kollejdən tashqari o'tkaziladigan tadbirlarning o'ziga xosligi shundaki, unda dasturning rang – barangligi, ular mazmunidagi yangiliklar, hayot bilan bog'liqligi, ijtimoiy – siyosiy hayotda, dunyoda bo'ladigan o'zgarishlarning nechog'li ahamiyatga molik ekanligi, inson hayotidagi ahamiyati, hayotga pok, vijdonan, insoniylik ko'zi bilan qarashga o'rgatish, xulosa chiqarish, yigit – qizlarning shaxs sifatida shakllantirishlari uchun imkoniyat yaratadi. O'quvchilar ijodi va

tashabbuskorligiga alohida ahamiyat berish, o'quvchilar orasida ko'rik tanlovlar tashkil etish, gazeta jurnallar chiqarishga turli – tuman to'garaklar tashkil etish yaxshi samara beradi.

Kollejlarda har haftada ikki marta guruhdan tashqari mashg'ulotlar o'tkazib turish, bu mashg'ulotlar vaqtida ekskursiyalar uyushtirish, o'quvchilar bilan turli ishlar bajarish, o'quvchilarni ijodiy faoliyatga o'rgatish kerakligi muhim hisoblanadi. O'quvchi bunday mashg'ulotlarga qiziqishi bilan faol qatnashadilar. Guruhdan tashqari mashg'ulotlar hamma vaqt o'quvchilar bilan gavjum bo'ladi. Guruhdan tashqari ishlar o'quvchilar adabiyotdan keyin behuda ishlar bilan shug'ullanmasdan o'zlari va jamiyat uchun foydali hamda qiziqarli bo'lgan ularning aqliy va jismoniy o'sishiga yordam beradigan, bilim saviyasini oshiradigan mashg'ulotlar bilan band bo'lishlari ta'minlanadi. Bunday mashg'ulotlar bolalarning mustaqilligi va ijodiy aktivligini oshirish, estetik tarbiyalashda katta ahamiyatga ega. O'quvchilarning ijodkorligini oshirishda guruhdan tashqari ishlarning eng samarali turlaridan biri to'garakdir. Kollejlarda tikuvchilik, pazandachilik, haykaltaroshlik, grafika, naqqoshlik, kulolchilik, ganch o'ymakorlik, duradgorlikning sodda usullari bo'yicha to'garaklar tashkil etish mumkin.

Kasb fanini o'qitishga dars soatlari oz vaqt ajratilganligini hisobga olib, o'quvchilar guruhdan tashqari ishlarning qulay to'garak mashg'ulotlariga ko'proq jalb etiladi. To'garaklarga hohish va havasi bo'lgan, bu sohada bilim va malaka olishni xoxlagan o'quvchilar qabul qilinib, ular doimiy bo'lishiga alohida ahamiyat beriladi. To'garakning har bir a'zosi mashg'ulotlarga muntazam, faol qatnashishi topshirilgan vazifalarning o'z vaqtida bajara olishi, fanlarning yaxshi o'zlashtirishi, kollej, jamoa, oila ishlarida faollik ko'rsatish lozim. To'garaklarda har bir guruhni rahbar va o'quvchilar tomonidan birlashtirilgan o'quvchi boshqaradi. To'garak qatnashchilari o'quvchilarning yoshi, qobiliyati, bilim va qiziqishga qarab gruppalariga ajratiladi. Mashg'ulotlarning yaxshi yo'lga qo'yish uchun

to'garak rahbari mashg'ulot rejasiga rioya qilgan holda uni o'z vaqtida o'tkazishi, to'garak xonasini jihozlash, boyitish kabi ishlarning amalga oshirish kerak. To'garak mashg'ulotlarida uy – ro'zg'or buyumlari, kollej jihozlari, meva va sabzavotlar, turli ijod namunalaridan tashkil topgan natyurtmartlar maxsus taglik ustiga qo'yiladi. O'qituvchi to'garak a'zolari bilan o'tkazilayotgan mashg'ulotlarda ularga turli jihozlardan masalan: tikuvchilikda igna, qaychi, gazlama ishlash: tasviriy san'at to'garakda tush, bo'yoq, akvarel: pazandachilik to'garagida pichoq va turli buyumlar bilan ishlash texnikasini ham o'rgatib borishi, buyumlarning bosqichma – bosqich ishlangan ko'rsatmalari qurollarining qo'rsatib turish lozim. O'qituvchi rahbarligida vazifa to'liq bajarilgan to'garak qatnashchilarining bajargan ishlari yuzasidan to'garak mashg'ulotlari o'tkaziladigan guruhda ko'rik uyushtiriladi. Bu to'garak qatnashchilari o'zi va o'rtoqlarining yutuq va kamchiliklarining tekshirib chiqadilar. To'garak rahbari o'quvchilarning fikrini umumlashtirib, ularga tegishli maslahatlar beradi. Suhbat mashg'ulotlarida o'quvchilarning ijod namunalari bilan tanishib borishlari to'garak faoliyatida muhim ahamiyatga ega. To'garak a'zolari bunday tanishish asarlarini diqqat bilan o'rganish orqali o'zlari qiziqqan soha bo'yicha bilimlarining oshirib boradi. Shunday qilib, turli materiallardan foydalanish texnikasini qo'llab o'qituvchi to'garak a'zolarining ijod namunalari bo'yicha o'tkaziladigan suhbat mashg'ulotlarida klassik meros bilan tanishtiradi, ularga ijod an'analari ahamiyatining tanishtiradi va san'atining xalq uchun xizmat qilishi haqida tushunchalar beriladi. Bunda o'quvchilar san'at asarlari bilan tanishib, san'atimizning jahonshumul ahamiyatga ega ekanligini, uning milliy rang – barangligi va ijodiy individualligini, bilib oladilar.

Tasviriy san'at – hozirgi vaqtda tasviriy san'atning keng tarqalgan turlaridan biri badiiy grafikadir. Kitoblarning bezagi, plakatlari, reklamalar, oziq ovqat maxsulotlarim va boshqa narsalar o'raladigan, joylashtiriladigan

karton, quti, qop va hakoza larga solingan bezaklar, pochta markalari, tabrik qog'ozlari, konvert va boshqalar grafikaning ko'rinishlari hisoblanadi. Kollejlarda ta'lim – tarbiya jarayonida, guruh va kollejdanda tashqari ishlarida grafika to'garagining ahamiyati g'oyat kattadir. O'quvchilarning har xil soha bo'yicha chiqariladigan jurnal va devoriy gazetalarini, o'quvchilarning albomlarining grafikasiz tasavvur etib bo'lmaydi. Odatda bularning bezatishda tasviriy san'at darslaridan yaxshi o'zlashtiruvchi, rassomlik to'garaklarining qobiliyatli a'zosi bo'lgan o'quvchilar qatnashadilar. Mana shular orqali ham o'quvchilarning ijodkorligi yanada oshib boradi. O'quvchilarning ijodiy qobiliyatlarining o'stirishda grafika to'garagi mashg'ulotlari ayniqsa foydalidir. Shuning uchun kollejlarda grafika to'garagining tasviriy san'at to'garagida mashg'ulotlarini boshlamasdan oldin qalam, rasm ishlash uchun moslangan qalinli yoki yog'ochli ruchkalar, tush, akvarel, guash, qog'oz, karton kabi materiallar bilan tanishtirilgach turli vertinal, garizantan, egri siniq, to'lqinli ingichka va yo'g'on chiziqlar chizib mashq qiladilar. Ular narsaning o'ziga qarab rasmini chizib mashg'ulotlarida turli shakldagi barglar, gullar, o'simliklar va daraxt shoxlari, qirrali toshlar, papka, kitob yoki nota papkasi. Meva va sabzavot kabilarning rasmini chizadilar. Oddiy qush va uy hayvonlarining tekis bo'yalgan rasmlarining ishlaydi. Kompazitsiya mashg'ulotlarida esa to'g'ri chiziqlar yordamida hayvonot bog'ining, parklarning panjalarining daladagi turli gul va o'g'itlar, qurilishdagi kran, temir yo'l kabilarning, siniq to'lqinli, qiyshiq chiziq yordamida esa "suvdagi baliqlar" "arra ushlab turgan bola" va boshqalarni ingichka va yo'g'on chiziqlar yordamida turli daraxt barcha va shoxlari, gullarni chizib mashq qiladilar. Rangli qog'ozlar yordamida bizning uy, sport maydoni, bolalar bog'chasi temalarida kompazitsiya ekkizlarini yasaydilar. Aylana va kvadrat ichiga turli matematik bezakli rasmlar chizadilar. O'quvchilar konpozitsiya mashg'ulotlarida bo'yoq dog'lari bo'yicha rasmlar,

mum surilgan qog'oz yoki kartonni uchli pichoqcha bilan qirib, tematik rasmlari ishlaydilar.

Kompozitsiya mashg'ulotlarida esa hayvonlar, qush va parrandalarning kuzatib, masal va kasb egalari bilan uchrashuvlarga ilyustratsiyalar ishlaydilar. Kitob muqovasi, metallom yig'ish, yangi yil kechasi va boshqa mavzularda plakat eskizlarini ham bajaradilar. O'quvchilar o'zlari ijod etgan kompozitsiyalarini ishlab bo'lgach, uni qattiq materiallarga tushurish yo'llarini ham o'rganadilar.

To'garak mashg'ulotlarida o'quvchilar oddiy shakldagi meva va sabzavotlarning nusxalari bilan birgalikda ba'zi oddiy barglarni, hajmga ega bo'lgan krujka va boshqalar shaklini o'ziga qarab yasaydilar. O'qituvchi bolalarga loy va plastilindan narsalar yasashda umumiydan asta – sekin xususiylikka o'tishni bunday ishlarni bajarishda ular har doim ikki ko'lni ishlatishi lozimligini o'rgatib borishi kerak. Chunki bunda narsaning shakli va hajmi tez idrok etiladi, ularning yasashga qulaylik tug'iladi, binobarin ikki ko'lni ishlatish qobiliyati ham shakllanib boradi.

O'quvchilar kompozitsiya mashg'ulotlarida qiziqarli kasb egalari bilan uchrashuvlar asosida loy va plastilindan harakatdagi odam, qush va hayvonlarning haykalchalarini yasashni ham mashq qiladilar. Bunda o'qituvchi bolalardan qoidaga qat'iy rioya qilishni talab qilmasligi lozim. O'quvchilar diqqati yasaladigan haykalning xarakteriga, obyektlarni tasvirlash esa umumiy shaklning yo'nalishiga qaratilish kerak. To'garak mashg'ulotlarida o'quvchilarning imkoniyati boricha mustaqil ishlashlari lozim.

Mashg'ulotlarda o'quvchilar avvalo kompozitsiya eskiziga ahamiyat berishlari va so'ngra uni ifodalashga o'tishlari lozim. Eskiz tez bajariladi. Bunday eskizlar uzoq kuzatish va kundalik taasurotlar asosida loy yoki plastilindan yasaladi. Shunday qilib, birinchi eskiz varianti yaxlit holatda bajariladi. Qattiq materiallar bilan mashg'ulotlarida o'quvchilar erkin mavjud

kompazitsiyalarni daraxt shoxlarini yasaydilar mana shunda ham o'quvchilarda ijodkorlik yanada rivojlantirib boradi.

To'garak mashg'ulotlarida har bir o'quvchi bilan individual ishlash juda katta nazariy va amaliy ahamiyatga ega. Individual ishlash prinsipi ta'lim – tarbiya ishlarida, shuningdek, mustaqil mashg'ulotlarda har bir o'quvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olishdan iborat.

To'garak a'zolari bilan individual ishlashda to'garak rahbari, ya'ni o'qituvchining ro'li benihoya katta.

Birinchidan har bir o'quvchining har xil kasb hunari nechog'li tez va puxta egallashi eng avvalo, o'qituvchi u bilan qanchalik ko'p va diqqat bilan individual ishlaganiga bog'liq.

Ikkinchidan, o'qituvchining bevosita ta'siri va rahbarligi natijasidagina bu kasbga ixlos qo'ygan o'quvchilarda badiiy estetik sifatlar vujudga keladi va uyg'unlashadi.

Uchinchidan, o'quvchi bilan olib boriladigan individual ishning samarali o'qituvchi, tarbiyaviy imkoniyatlaridan qanchalik ustalik bilan va keng foydalana olishiga bog'liq. O'quvchilarning o'z qiziqishlari bo'yicha to'garakka qatnashishga bo'lgan ehtiyojlari, istak va intilishlarini bilib olish uchun yalpi so'rab chiqish yoki suhbatlashish kerak bo'ladi. Bu ishni yaxshisi o'quv yili boshida o'tkazgan ma'qul. Olingan ma'lumotlar o'quvchilar bilan ularning moyilligi va imkoniyatlarining hisobga olib, alohida ish olib borishga imkon beradi.

Individual ishlashning eng asosiy turlaridan biri guruhdan tashqari vaqtlarda o'qituvchilarning bergan topshirig'iga asosan yoki o'qituvchining o'z ustida mustaqil ishlash davomida o'zlari qiziqqan ishlari asosida ishlashidir. Guruhdan tashqari bunday ishlar, o'quvchilarning bilim darajasini kengaytiradi, ularda san'at asarlariga muhabbat uyg'otadi, o'zlari qiziqishlari bo'yicha asarlarini mustaqil adabiyotga o'rgatadi. O'quvchilar bilan individual ishlashni ularning qobiliyatiga qarab, kasb-hunar kollejilaridanoq

boshlagani ma'qul. Guruhdan tashqari o'quvchilar bilan ishlash vaqtida o'qituvchi ularni san'atga qiziqishlarini o'stirishi tarbiyaviy jihatdan katta ahamiyatga ega.

Arxitektura va san'at yodgorliklariga ekskursiya. Ona –yurtimizning hamma yerida o'tmishning guvohi – bebaho arxitektura yodgorliklari ko'plab saqlanib qolgan. Ulardagi xalq me'morlari, ganchkor va naqqoshlari yaratgan jozibali bezaklar hozirgacha hammani hayratda qoldirib keladi. Nozik did va yuksak mahorat bilan bunyod etilgan har bir arxitektura yodgorligi xalqimizning madaniy boyligi va g'ururi hisoblanadi. Kollej o'quvchilarining ochiq joylarda o'rnatilgan haykallarni, arxitektura namunalarini tomosha qilishi va o'rganishi uchun ekskursiya uyushtirish katta ahamiyatga egadir. O'qituvchi ekskursiyaga puxta tayyorgarlik ko'radi. Avvalo, ekskursiyaga boriladigan joyni belgilaydi. U yerda arxitektura yodgorligi, bino yoki atoqli shaxsga qo'yilgan haykal bilan yaqindan tanishadi. To'garak a'zolari va boshqa qiziquvchi o'quvchilar bilan bo'lajak ekskursiya haqida suhbat o'tkazadi. Ekskursiyaga o'qituvchining o'zi rahbarlik qiladi.

Rassom va haykaltaroshlarning ustaxonalariga o'tkaziladigan ekskursiya. Bunda to'garak a'zolari taniqli rassom va haykaltaroshlar, ularning asarlari bilan tanishadilar. Bunday ekskursiyaning yaxshi tomoni shundaki, o'quvchilar rassom va haykaltaroshlarning o'zlari bilan ustaxonada yuzma – yuz o'tirib suhbatlashadilar.

Darhaqiqat yana bir narsaga to'xtalib o'tsam boshqa bir ilg'or kollej o'quvchilarining ishlaridan ko'rgazma tashkil etish ham alohida ahamiyat kasb etadi. O'quvchilar o'zga kollejdosh tengdoshlarining ishlari, havaskorlik ijodiy hayotlari bilan tanishadilar, eng yaxshi ishlardan zavqlanib ushunday ijod qilishga havas qiladilar. O'quvchilarda boshqa kollejning havaskor o'quvchilari, to'garak a'zolari bilan ijod sohasida musobaqalashish bir – biriga ijod sirlarini o'rgatish istagi tug'iladi. Buning uchun o'qituvchisi yoki to'garak rahbari tegishli kollej bilan oldindan kelishib olishi, birgalikda

ko'rgazma rejasini tuzish va shu asosda ko'rikka qo'yiladigan ijod namunalarining tanlash kerak. Ko'rgazma ochilish marosimiga o'sha kollejning to'garak rahbari va to'garak a'zolarini taklif qilish mumkin.

Guruhdan va kollejdani tashqari vaqtlarda ommaviy tadbirlar o'tkazish katta ahamiyatga ega bunday tadbirdan kollej o'quvchilarini adabiyotga va kasbga ongli, ijodiy yondoshish munosabatda bo'lish ruhida tarbiyalashga yordam beradi. Bunday tadbirlar jumlasiga, birinchi navbatda o'quvchilar o'rtasida uyushtiriladigan turli kechalar, konferensiyalar, suhbatlar, san'at arboblari bilan uchrashuvlar kiradi. O'quvchilar uchun qiziqarli va turmush bilan yaqindan bog'langan bo'lishi lozim. Ba'zi ommaviy tadbirlarga ishtirok etish uchun o'quvchilarning ota – onalari taklif etiladi. Bu kollejning turmush bilan, mahalliy aholi bilan bo'lgan aloqasini mustahkamlashga hamda uni ta'sir ko'rsatuvchi ma'anviy markazga aylanishga yordam beradi. Kollejdani va guruhdan tashqari ommaviy tadbirlar, yuqorida aytib o'tganimdek, oldindan rejalashtirilgan va ularning o'tkazilish muddati aniq belgilangan bo'lishi kerak. Ommaviy tadbirlar o'tkazish rejani har bir tadbirni o'tkazish uchun javobgarlik yuklatilgan shaxsning ismi ko'rsatilgan holda ko'pchilikning ko'zi tushadigan joyga osib qo'yilishi lozim. Bu ishda ular tashabbus va aktivlik ko'rsatishlari kerak. To'garaklarda o'quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini oshirish, grafika, haykaltaroshlik, amaliy san'at asarlari bilan tanishtirish va ular yuzasidan suhbat, ma'ruza uyushtirish yoki o'quvchilarga badiiy ta'lim berish normalaridan biri, ularning estetik ruhida tarbiyalashning kuchli vositasi hisoblanadi. To'garak a'zolari o'rtasida uyushtiriladigan suhbat, ularning bilim doirasini chuqurlashtiradi, his – tuyg'ularga ta'sir etadi va shaxsning tarkib topishga yordam beradi. To'garak rahbari bolalarda ijodiy qobiliyatni shakllantirish bilan birga ularga hayotni bilish vasitalaridan bo'lmish har bir san'at haqida elementar ma'lumotlar berishi, didini o'stirishi yaratilgan ijod asarlarini tahlil qilishni, tabiat va hayotdagi go'zallikni ko'ra bilishni o'rgatishi kerak. To'garak a'zolari bilan

suhbatda ijodiy asarlarini ko'rsatish uchun to'garaklarda ma'lum vaqt ajratiladi. Masalan: kichik gruppalarda mashg'ulot boshida yoki mashg'ulot oxirida 10-15 minut, o'rta va katta gruppalarda esa bunga 45 minut vaqt ajratiladi. Bunga o'qituvchi puxta tayyorlanishi, ijodiy asarlarini vaqtida tayyor qilib qo'yishi lozim. To'garak rahbari partalararo g'olib, ijod namunalarini hamma o'quvchilarga birma – bir ko'rsatib chiqiladi. Ayni vaqtda ularning diqqatini uzoqdan ko'rish qiyin bo'lgan mayda detallarga jalb qiladi, so'ngra hammaga ko'rinishi uchun o'rta qo'yadi, va oldindan belgilab olingan reja asosida, o'quvchilarning faol ishtirokida suhbatini davom ettiradi. Ko'rsatilgan ijod namunalari sonini ikki – uchtdan oshirmaslik tavsiya etiladi. Ular rangli, sifatli, xajmi ham guruhdagi hamma o'quvchilarga yaxshi ko'rinarli bo'lishi lozim. Suhbat o'tkazishda texnika vositalari katta yordam beradi. To'garak rahbarining savol va tushuntirishlari hamma gruppalarda bir – xil bo'lmaydi, albatta. Lekin hamma gruppalarda ham bu savol va tushuntirishlar o'quvchilarga ijod namunalarining yaratilishidan boshlab to uning ichki mohiyatini ochishgacha o'rgatishni nazarda tutib olib borilishi kerak. Masalan, kichik gruppada to'garak rahbari ijod asarlarini ko'rsatganda, asosan asarning mazmunini, ayrim qismlarining qanday joylaganini tushuntirib beradi. so'ngra savol – javoblar yordamida o'quvchilar tushunchalarini mustahkamlaydi. Suhbat shunday tashkil etilishi kerakki, u asar mazmunini ochib beribgina qolmay, o'quvchilar asarni yaratishda qanday vositalardan foydalanganini ham bilib olishlariga imkon bersin. O'qituvchi suhbat chog'ida ijodkor haqida qisqacha ma'lumot beradi. Biror asarni yaratishda uni nima ilhomlashtirganini u shu asarni qanday yaratganini, suhbatning asosiy mazmunini va shu mazmuniga badiiy shaklining mos kelish – kelmasligini tushuntirib olishda o'quvchilarga yordam berishi kerak.

Kollejlarda turli mavzularda, jumladan ijodiy asar bo'yicha kechalar o'tkaziladi. Ularning ta'lim – tarbiyaviy ro'li beqiyos katta. Kechalar

o'tkazish ishiga to'garak rahbari yoki o'qituvchisi rahbarlik qiladi. O'quvchilarning ijodiy ishlari guruhdan tashqari ishlar sifatida tez – tez o'tkazib turilishi ayni maqsadga muvofiqdir.

Olimpiada o'yinlari o'quvchilarga juda qiziqarli hisoblanadi. O'yinlarda o'quvchilar bir – birlari bilan bellashib, o'z bilim va zehnlarning qanchalik keng va chuqurligini, fanlardan olgan bilimlarining mustahkamligini bilib oladilar.

O'yinlar orqali ularning fikrlash doiralarni kengayib boradi. Boshqa fanlar kabi ijod namunalari fan bo'yicha ham o'qituvchi rahbarligida tur xil qiziqarli tanlovlar uyushtirish mumkin. Kollej o'qituvchilari o'rtasida o'tkazib kelingan tanlovlarda o'quvchilar ijod namunalari ishlaganlar. Bu asarni kim qanday ishlagan bo'lsa shunga qarab, ular tanlovda birinchi, ikkinchi, uchinchi o'rinlarni egallagan.

Ijodiy jurnal o'quvchilar namunalari ishlagan ijodiy asarlardan tashkil topadi. Jurnalni to'garakning a'zolari tayyorlaydi. Jurnal o'quvchilarni to'garakdagi turli mavzudagi ijodiy ishlari bilan tanishtiradi. Jurnalni sistemali chiqarib turish uchun o'qituvchisi rahbarligida olib boriladi. Ular jurnalga material yig'ish bilan birga, jurnal eskizini tayyorlashda o'qituvchiga yaqindan yordam beradilar. Jurnal sahifasida ko'rsatish maqsadida kollej o'quvchilarini ishlagan eng yaxshi ijod namunalari uchun vaqti bilan tanlovlar o'tkazib turiladi. Jurnalni har oyda bir marta chiqarib turish maqsadga muvofiqdir. Uning sahifalarida o'quvchilar ishlagan eng yaxshi ijod namunalari saqlanadi. Binobarin, jurnaldan vaqti – vaqti bilan dars ko'rgazmalari va tarbirlarda foydalanish mumkin: Ijodiy jurnallar o'quvchilarning ijodga bo'lgan havosini oshirishga samarali yordam beradi.

Guruhdan tashqari ishlar jarayonida fanning asosi bo'yicha olingan nazariy bilimlar mustaqil loyihalashni tayyorlashni o'rganish jarayonida ongli qo'llaniladi va buyumlarni yaratishda amaliy ifodasini topadi. Shu tariqa o'quvchilar faoliyatida jismoniy va aqliy kasbni birlashtirish orqali ularda

ijodiy qobiliyat rivojlantirib boriladi. Fan texnikaning taraqqiyoti o'quvchilarning ijodiyotini rivojlantirishi uchun katta imkoniyatlar ochadi. Boshqacha aytganda, har qachongidan ko'ra hozir o'quvchilarga ta'lim – tarbiya berishni kelajakka ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga fan texnika taraqqiyotining istiqboliga muvofiqlashtirish zarur. Mana shu o'ylash natijasida mavjud bilimlarni aktuallashtirish, taqqoslash, kuzatish va ijod jarayonida kelib chiqadigan vazifalarga muvofiqlashtirish mo'ljallangan loyihani umumiy prinsipi yoki sxemasi holida fikran tasavvur etish zarurati tug'iladi. Bu esa o'z navbatida hayolning faol ishlashi bilan topilgan yechimlarni hisoblashlarda va guruhdan tashqari ishlar jarayonida chizmalarda, kiyim eskizlarini yaratish, ularni bezashlarda aniq ifodalashni talab qiladigan o'ziga xos aqliy ish bilan bog'liqdir. Ijodiy kasb jarayonida faqat qandaydir buyuk yaratilib qolinmaydi, balki o'quvchining o'zi kiritgan yaqqol xususiyatlari ham namoyon bo'ladi. Shunga ko'ra, xususan ijodiy qobiliyat ijodkorlik sifatleri va o'quvchi hislatlarini shakllantirishning muhim omili hisoblanadi. Kasb-hunar kolleji o'quvchilarida guruhdan tashqari ishlar jarayonida o'quvchilarda ijodkorlik qobiliyatlarini hal qilish ham subyektiv, ham obyektiv yangi ko'rsatkichlar bilan harakterlanishi mumkin. Tikuvchilik buyumlarini loyihalash va badiiy bezash fanida avvalo biror buyumni bezash yo'llari, yani bezash turlari, ularni tayyorlash usullari haqida ma'lumotlar beriladi. O'quvchilardagi ijodkorlik ko'nikmalarini o'stirishda individual yondoshish ta'limning eng muhim prinsiplari birini amalga oshirish yuqori darajadagi qiyin ijodiy qobiliyatlariga doir qobiliyatni rivojlantirish imkonini beradi. Binobarin ana shunday yondoshishda o'quvchilarning ma'naviy kuchi namoyon bo'ladi, mustaqil ko'rsatish, ijodkorlikka qatnashadigan barcha o'quvchilarni, shu jumladan, eng bo'sh o'quvchilarni ham kamol toptirish uchun haqiqiy sharoit vujudga keladi. O'quvchilar, har bir hunarning mohiyatini, yaxshi va yomon sifatlarini bilgandagina unga oid bilimlarni mukammal egallashga hunarmandlar ahlini qo'llab – quvvatlashi mumkin.

Shunday ekan guruhdan tashqari ishlar jarayonida sharq mutafakkir olimlari, buyuk ma'rifatparvar olimlar ijodi orqali o'quvchilarni ijodkorligini shakllantirib boriladi. Buyuk mutafakkirlar o'z asarlarida o'quvchilarga vatanparvarlik, kasbsevarlik, mardlik va jasoratlik kabi fazilatlarini tarbiyalash zarurligini qayd qiladilar. Masalan, O'rta Sharq hamda O'rta Osiyo xalqlarining taxminan eramizdan oldingi V asrdan VI asrga qadar tuzilgan muqaddas kitobi "Avesto"da ham o'quvchilar kamolotiga, kasbning va kasb – hunarning ahamiyati to'g'risidagi materiallarni ko'rishimiz mumkin. Chunonchi, taqvodor chorvador "O'z turish –turmushida odil, oqil va hurmatga sazovar bo'lsa", katta pag'onaga erishadi va shogirdlar yetishtiradi. "Qodir Xudo" "Kimki yaxshi niyat yo'lida chorvador jamoasidan bo'lsa, shunigina kasbi uchun ardoqlaydi" deyiladi. Kasbni sharaflash, kasb ahlining qadr – qimmatini, uning manfaati uchun astoydil kurashni qomusiy olim Abu Ali Ibn Sinoning ilmiy faoliyatida ham ko'rishimiz mumkin.

Shunday qilib, guruhdan tashqari ishlar jarayonida o'quvchilar kasb darslaridagiga qaraganda unumli kasb bilan band bo'lishi ta'minlanadi.

Yuqorida aytib o'tilgan barcha fikrlar kasb tarbiyasi asosida guruhdan tashqari mashg'ulotlar vazifalarini quyidagicha ifodalash imkonini beradi.

1. Kasb ta'limi davomida o'quvchilar olgan bilim va ko'nikmalarni mustahkamlash, umumlashtirish hamda kengaytirish;
2. Unumli kasbga asoslangan ijodkorlik faoliyatiga o'quvchilarni jalb qilish;
3. Kasbga bo'lgan ijobiy munosabatini shakllantirish.

Kasb ta'limiga asoslangan guruhdan tashqari mashg'ulotlar turli shakllarda amalga oshiriladi. Bu jarayonda to'garaklarni o'rni beqiyosdir. To'garak guruhdan tashqari mashg'ulotlarni tashkil qilishning keng tarqalgan va chuqur tadqiq etilgan shakli hisoblanadi. To'garakda o'quvchilar kasb darsida o'quvchilar bajargan ishning davomi bo'lib, bunda o'quvchilarning faoliyati yanada murakkabroq, kengroq yo'lga qo'yiladi. Guruhdan tashqari

mashg'ulotlarning ikkinchi guruhiga sayohatlar, fan olimpiadalari, ko'rgazmalar, o'quvchilar kanferensiyalari ishlab chiqarish ilg'orlari bilan bo'ladigan uchrashuvlar kabi tadbirlar kiradi. Bu turdagi mashg'ulotlarning mohiyati va afzalligini belgilab beruvchi jihati ko'plab o'quvchilarni jalb qilish imkoniyatining mavjudligi bo'lib, shu sababli ular tadbirlarning ommaviy shakllari deb yuritiladi.

TAJIRIBA – SINOV ISHLARI.

“Kasb ta'limi jarayonida o'quvchilar ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish yo'llari” mavzusidagi bitiruv malakaviy ishga doir tajriba sinov ishlarini olib bordim. Tajriba ishi uchun obyekt qilib Namangan viloyati Pop tumani Maishiy xizmat ko'rsatish Kasb-hunar kolleji o'quvchilarini tanladim. Ushbu kollejda men o'z tajriba ishlarimini o'qituvchi G'ulamova Adashxon rahbarlik qilayotgan 123- guruh va Gapparova Muharram rahbarlik qilayotgan 122- guruhlarda olib bordim. Tajriba sinov ishlarini olib borish uchun quyidagi vazifalarni belgilab oldim.

1. Darsni kuzatish va tahlil qilish.

2. Dars jarayonida o'quvchilarni qiziqishlariga, ijodiy qobiliyatlari qay darajada ekanligini aniqlash va amalda qo'llash.

Kasb-hunar kolleji kasb darslarida yangi pedagogik texnologiyalarni qo'llash va o'quvchilarni ijodkorligini oshirish yangidan – yangi usullardan foydalanish.

Ushbu maqsadlardagi tajribalarni olib borishni rejalashtirdim. Har bir bosqich uchun maqsad va vazifalarni belgilab oldim. Ular quyidagilardan iborat.

- 1-bosqich Kuzatuv bosqichi.

- 2-bosqich Rivojlantiruvchi bosqich.

- 3-bosqich Solishtirma tahlil bosqichi.

Men birinchi bosqichni asosan mart oylarida olib bordim. Ushbu bosqichda men shu kollejning 2 ta guruhning bir nechta darslarini kuzatdim. Bunga ushbu bosqichda tanlangan guruhlarda ekstremant o'tkazilgunga qadar bo'lgan vaqtgacha amaliyotdagi holatni aniqlash uchun maqsad va vazifalarni belgilab olgan edim. Shunga ko'ra ushbu guruhlarda darslarni kuzatishdan maqsad qilib, hozirgi kundagi kasb darslarida o'quvchilarni qay darajada turli materiallar bilan ishlay olishi, bezatishlari, ular uchun shart sharoitlar usul va vositalar erishilgan natijalarni aniqlash o'quvchilarni darsligi o'quv faoliyatlari qay darajadali o'quvchilarni dars ohiridagi o'zlashtirish darajasini tahlil qilishdan iboratdir.

Kasb fani bilan uzviy bog'liq bo'lgan darslardagi kuzatish va tahlil qilish 1-bosqichni amalga oshirish jarayonida ushbu belgilangan maqsad va vazifalar amalga oshirildi. Darslarni kuzatishda o'quvchilarni darsdagi ishtirokiga, berilgan topshiriqlarini ongli idrok qilishlariga etibor beriladi. o'qituvchining qo'llayotgan usuli vositalarning anashu dars uchun qay darajada samara berayotganini tahlil qildim.

122- guruh Kasb fani o'qituvchisi Gapparova Muharram Kasb darsi. Mavzu: "Turli materiallar bilan ishlash" va undan tashqari bir necha darslarni kuzatdim. Ushbu darsda o'quvchilarning tabiiy materiallar haqida chuqur ma'lumotlar bilan tanishtirilmadi. Tanishtirishda zarur vosita va usullardan foydalanilmadi. O'quvchilarni darsda ijodkorligi oshirilmadi. Muammoni har taraflama ko'rib chiqish uchun o'zaro birgalikda faoliyat yuritish uchun har qanday metod va usullar qo'llanilmadi. O'quvchilar sust ishtirok etishdi. Guruhda yoqimli psixologik muhit yaratilmadi. Yangi ilg'or pedagogik texnologiyalardan foydalanilmadi. O'quvchilarda o'zini boshqarish nazorati va baholashni yo'lga qo'yilmadi. O'quvchilarning ko'pgina qismi darsga qiziqmaganlaridan ishtirok etmadilar.

Guruhdagi 25 % o'quvchisi o'qituvchining majburiyatlari ostida ijtirok etdi. O'quvchilarni o'ylashga, izlashga ijodiy qobiliyatlarini

rivojlantirishga, ijodkorligini oshirishga, ijobiy, iliq muhit yaratilmadi. Darsda ilmiylik va zamonaviylikka e'tibor berilmoqda. Bu dars yakunida o'quvchilarga o'tilgan mavzuga doir savollar berildi va ularni o'zlashtirish darajalariga tashxis qo'yildi.

U darsda to'la o'zlashtirishlariga erishish uchun aniq maqsad qo'yilgan shu tarzda bir necha darslarni kuzatdim. Kasb darslaridan tashqari yana boshqa darslarni ham kuzatdim. Shu bir necha darslarni tahlil qilib, o'quvchilarning o'zlashtirish darajalarini umumiy holda hisoblab chiqdim.

	O'zlashtirish darajalari	122- guruh	123- guruh
Kasb	A'lo	20 % - 5 ta	24% -6 ta
	Yaxshi	40 % - 10 ta	36 % -9 ta
	Qoniqarli	40 % -15 ta	40 % -15 ta

Birinchi bosqich natijalaridan ko'rinib turibdiki, har ikkala guruhda ham o'quvchilar passiv ishtirok etyaptilar. O'quvchilarning mustaqil, erkin ijodiy qobiliyatlarini oshirish uchun hech qanday muhit yaratilmagan. Ular deyarli barcha darslarda ana shunday ishtirok etyaptilar. Turli materiallar haqida ma'lumotga egalar, o'zlari mustaqil ishlay oladilar.

Natijalar va ularning sabablaridan xulosa chiqarib, ikkinchi rivojlantiruvchi bosqichni amalga oshirdim.

Rivojlantiruvchi bosqich:

Bu bosqich uchun ham maqsad va vazifalarni belgilab oldim.

Maqsad: dars jarayonida texnologik yondoshish o'quvchilarni kasbga oid ma'lumotlar to'g'risida malakalarini oshirish uchun darslarga yangi pedagogik texnologiyani joriy qilish, o'quvchilarni o'zi mustaqil fikrlashini tarkib toptirish, mustaqil ijodiy ishlashga undovchi yangi usullardan

foydalanish va dars samaradorligini oshirishga erishish. Ijodiy qobiliyatlarini shakllantirish.

Vazifalar: Kasb-hunar kolleji kasb darslarida interfaol usullarni qo'llash. Darsga bo'lgan qiziqishini oshirish va guruhda samimiy, do'stona muhit yaratish, hamkorlikda faoliyat yuritish mazmunini aniqlash va ularni natijalarini jadvalga tushirish.

Bu bosqichda kasb-hunar kollejlarning 122- va 123- guruh darsiga yangi pedagogik texnologiyalarni joriy etish, o'quvchilarni ijodkorligini oshirish uchun dars samaradorligini oshirishga e'tibor qaratdim. Darslarda o'quvchilar ijodiy qobiliyatlarini shakllantirishga qaratdim. Birinchi o'rinda dars samaradorligini oshirish uchun, zamonaviy yangi ilg'or pedagogik tajribalar, didaktik vositalardan keng foydalanish, Kasb ta'limi va tarbiyasining birligini ta'minlashi o'quvchilarni guruhdan tashqari ishlarda ekskursiyalarga olib chiqish, to'garaklarga qatnashishlari kasbga qiziqish va kasbsevarlikni shakllantirish kerak. Chunki bunda butun e'tibor o'quvchilarning faolligini oshirishga qaratilgan bo'lib, buning uchun yetarli shart sharoitlar yaratish lozimligini inobatga olib, bu texnologiyalarni joriy etishning yo'l –yo'riqlari va qoidalari haqida suhbatlashdim. Bu bosqich uchun ham birinchi bosqichda asos qilib olingan 122- va 123- guruhlarini belgilab oldim. 122- va 123- guruhlarda olib borgan tadqiqotlarim asosida darslardagi o'quvchilarning qiziqish va faolligini oshirish ijodiy qobiliyatlarini shakllantirish, fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan dars loyihalari, usul va vositalarini tanlab, yo'nalishlar berdim.

122- guruhda har doimgidek an'anaviy usullardagi loyihalar asosida dars o'tkaziladi. Ana shu tanlangan mavzular texnologik loyiha asosida tanlanib, yangi usul va vositalar, tanlangan dars loyihalarini 123- guruhga taqdim etdim. Bu darslar kuzatilib, dars yakunida ikkala guruhdan ham bilim darajalariniqay darajada ekanligini aniqlovchi sinovlar o'tkazdim. Bunday

rivojlantiruvchi bosqich asosida o'tilgan darslar kasb, tasviriy san'at, amaliy kasbga oid intellektual mavzular asosida tashkil qilindi.

Kasb darsi	Nazorat guruh	Tajriba guruh
2- marta	122- guruh	123 - guruh
A'lo	24 % - 6 ta	28% -6 ta
Yaxshi	40 % - 10 ta	44 % -9 ta
Qoniqarli	36 % -15 ta	20 % -15 ta

Bu bosqich natijalariga qaraydigan bo'lsak, o'quvchilarning bilimlariga ijodiy qobiliyatlarini intellektual salohiyatga o'zlashtirishlariga baho berishda berilgan topshiriqni qay darajada bajarganliklari, og'zaki nutqiga, idrokiga mustaqil fikrlash, ijodiy qobiliyatlarini, faolliklarini hisobga olib o'zlashtirish foizlarida aks ettirilgan. Dastlab birinchi o'tilgan darslarda o'qituvchilar o'quvchilarga yangiliklar kiritib dars o'tish ancha qiyinchilik tug'dirdi. Buning yaxshi, samarali chiqishi uchun texnika vositalari va o'quv qurollari, xona jihozlanishi unchalik talabga javob bermaydi. Bundan tashqari kollej o'quvchilarimizning ko'pchiligi darslarda bunday usullardan foydalanilmaganligini ham ko'proq muammo tug'diradi. O'quvchilarni bir xil yoshdagi guruhlar darslari tahlil ishi uchun ko'rsatadiki, yangi pedagogik texnologiyalar ta'lim berilgan guruh natijalari ancha yuqori. Ayniqsa, kasb-hunar kolleji kasb darslarida turli materiallar bilan ishlashni chuqurroq olib borish avvalo dars samaradorligini oshirish bilan birga o'quvchilarni kasbga oid, guruhdan tashqari ishlash jarayonida, ijodkorlik qobiliyatlari yanada kengaydi. Bu orqali ularning ijodkorliklari rivojlandi.

Kasb darsi	Nazorat guruh	Tajriba guruh
3 marta	122- guruh	123- guruh

A'lo	28% - 6 ta	36 % -6 ta
Yaxshi	48% - 10 ta	56% -9 ta
Qoniqarli	24 -15 ta	8% -15 ta

Solishtirma tahlil bosqichi.

Maqsad: Natijalar tahlilini ko'zdan kechirish, samaradorlik sabablarini aniqlash.

Vazifalar: 1-bosqich va 2-bosqich natijalarini solishtirish.

Solishtirish natijalarini diagrammalarda tasvirlash. Olingan natijalarni jadvallarda aks ettirib avval ikkinchi bosqichdagi ikkala guruh natijalariga nazar solsak tajriba guruh natijalarini har bir o'tkazilgan darsdan keyin aniqlanganda ma'lum bir foizga oshmoqda nazorat guruhi natijalari har doimo bir hilda bo'lmoqda. Biz bu olingan natijalarni 1- bosqich natijalariga ham solishtirdim.

1-2- bosqichda olingan natijalar shuni ko'rsatdiki, 1-bosqich 122- guruh qanday natijaga erishgan bo'lsa, 2-bosqichda ham deyarli o'zgarmas, bilim saviyasi juda kam foizga oshgan. 123- guruhda esa 1-bosiqchdagi natijalar 2-rivojlantiruvchi bosqichda o'zgarishini ko'rish mumkin. Bir necha darslardan keyin ham 122- guruh an'anaviy hamda darslar yana shunday o'tayotganligi uchun natijalarni o'sganligi sezilmayapti.

123- guruh tajriba sinovining o'zlashtirish esa o'sib bormoqda. Bundan shunday xulosaga kelish mumkinki, 2-rivojlantiruvchi bosqich ancha samarali.

1- va 2-bosqichdagi 122- guruh va 123- guruh ko'rsatkichlari quyidagi diagramma asosida tasvirlangan.

Tajriba sinovdan oldingi natija

Nazorat guruhi 122

Tajriba guruhi 123

№	Guruhi	Jami o'quvchilar	Tajribada
---	--------	------------------	-----------

		soni	qatnashdi
	123	30	30
	122	31	31

Nazorat guruhi	Tajriba guruhi
A'lo – 6 nafat 24 %	A'lo – 9 nafat 28 %
Yaxshi – 15 ta 40%	Yaxshi – 15 ta 32%
Qoniqarli -10 ta 36%	Qoniqarli -6 ta 20%
Qoniqarsiz – 0%	Qoniqarsiz – 0%

Tajriba sinovidan keyingi natija

Nazorat guruhi 122

Tajriba guruhi 123

№	Guruhi	Jami o'quvchilar soni	Tajribada qatnashdi
	123	30	30
	122	31	31

Nazorat guruhi	Tajriba guruhi
A'lo – 10 nafat 28 %	A'lo – 12 nafat 36 %
Yaxshi – 13 ta 48%	Yaxshi – 14 ta 56%
Qoniqarli -8 ta 24%	Qoniqarli -4 ta 8%
Qoniqarsiz – 0%	Qoniqarsiz – 0%

123- guruh tajriba ko'rsatkichlari, faollik ko'rsatish ishtiyoqi, idrok qilishlari, mustaqil ishlari, ijodiy qobiliyatlari ancha kuchli va o'sib bormoqda. 122- guruh natijalari esa goho tushib, goho ko'tarilib turmoqda. Bundan shunday xulosa qilish mumkinki, interfaol usullar doimo o'quvchilarning o'quv faolliklarini, mustaqil fikrlash va ijodkorligini rivojlantirishga xizmat qiladi. Bu o'zaro samaradorlikka, birdamlilikka, faollikka qiziqishlari yanada oshishiga sabab bo'ladi. Darslar samaradorligi ortadi.

Tajribadan ko'rinib turibdiki, oddiy dars bilan ilg'or pedagogik tajribalar va turli shakl va materiallardan foydalanish, turli materiallar bilan ishlash, o'quvchilarni ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish, o'tilgan darslari o'rtasida katta farq mavjud. An'anaviy dars orqali o'quvchilar unchalik ma'lumotga ega bo'lmaydilar va ijodkorliklariga u darajada o'smaydi. Lekin noan'anaviy darslar orqali o'quvchilarga ko'plab ma'lumotlarni turli narsalarni bajarishni o'rgatish mumkin. Chunki noan'anaviy darsda o'quvchilar savol – javob, chaqiriq kabi usullardan foydalanish, ko'rgazma, tarqatma, magnitafon multimediyalardan oqilona foydalanish mumkin. Shu orqali o'quvchilarda bu kabi darslardan hech qachon zerikish uchun bo'sh vaqt topa olmaydilar. Ularni fikrlash doirasi kengayadi, ijodkorligi yanada oshadi.

Tajribalar shuni ko'rsatadiki, darslarni amaliy mashg'ulotlarni olib borish va yangi ilg'or pedagogik tajribalardan foydalanish orqali avvalo dars samaradorligi oshdi. Kasbga bo'lgan qiziqishlari kengayadi.

O'quvchilar ijodiy qobiliyatlari ma'lum darajada oshirildi va ijobiy natijalarga erishildi. Darslarda yangi ilg'or pedagogik tajribalardan foydalanish, turli shakl va metodlarni qo'llash, o'quvchilarni turli materiallar bilan ishlashga o'rgatish orqali o'quvchilar ijodkorligi oshirilishi yana bir bor o'z isbotini topdi.

XULOSA

O'quvchilarning malakali kadrlar qilib tayyorlash eng muhim vazifalardan biridir. Bu borada Kasb ta'limining o'rni ham ahamiyatlidir.

Kasb ta'limi darslarini samaradorligini oshirish, o'quv ijodkorligini oshirishda ta'limning turli shakl va metodlaridan foydalanish, yangi ilg'or pedagogik tajribalardan foydalanish eng ma'qullarini tanlab olish, ularni amalda joriy etish hozirgi kunning dolzarb vazifalaridan biridir.

Shu bois ushbu bitiruv malakaviy ishi dars samaradorligini oshirishga o'quvchilar ijodkorligini oshirishga qaratilgan "Kasb ta'limi jarayonida o'quvchilar ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish yo'llari" mavzusida yozilgan. Ushbu bitiruv malakaviy ishida asosan o'quvchilar ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda turli materiallar bilan ishlash, guruhdan tashqari ishlarni olib borish, ijodiy faolligini oshirishda kasb fanining fanlararo aloqasini, turli shakl va metodlar orqali tushuntirib borish, o'qituvchining mahorati, o'qituvchi o'quvchilarning ko'proq o'z ustida ishlashlari, bunda turli ko'rgazmali, tarqatmali vositalardan foydalanish texnika vositalaridan foydalanish yo'llari orqali dars samaradorligini oshirishga qaratilgan ishlar amalga oshirildi.

O'quvchilarni ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish jarayonida guruhdan tashqari ishlarni olib borish orqali ham o'quvchilarning bo'sh vaqtlarini rejali tashkil etish va fanlar bo'yicha olgan bilimlarini mustahkamlash mustaqil ravishda bilim olish yo'li bilan dunyoqarashlarini, ijodkorliklarini o'stirishga qaratilgan ishlar amalga oshirildi.

Bunda fan to'garaklari taqdimotlari tanlovlar suhbatlar, ko'rgazma va sayohatlar tashkil etish orqali dars samaradorligini va o'quvchilar qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan ishlar olib borildi. Turli materiallar bilan ishlash jarayonida o'quvchilar ijodkorligini, o'z ustida ishlash qobiliyatlarini, kasbsevarlik qobiliyatlarini oshirish kabi ishlar amalga oshirildi. Darslar samaradorligini oshirishda turli usullar, yangi ilg'or

pedagogik tajribalardan foydalanish yo'llari ko'rsatiladi. Ushbu ko'rsatilgan shakl va metodlarni kollejda bir necha guruhlarda tajriba sinovlar o'tkaziladi.

Buning uchun 122- va 123- guruhlar tanlab olindi. Ushbu 122- va 123- guruhlarda tajriba sinovlar amalga oshirildi. Bu tajriba sinovlar orqali turli materiallar bilan ishlash jarayonida o'quvchilar ijodiy qobiliyatlari va darslar samaradorligini oshirildi, ijobiy natijalarga erishildi. Buni bitiruv malakaviy ishimda yaqqol ko'rsatildi. Dars samaradorligini jadval orqali ko'rsatilgan.

Xulosa qilib shuni aytganda olib borilgan natijalar shuni ko'rsatdiki, Kasb ta'limi jarayonida o'quvchilarda kasbsevarlik, o'z ustida ishlash, ijodiy qobiliyatlarning o'sishi, mashqlarini rivojlantirish, rang sezish va ajratish emotsiyalari kuchayishi kuzatildi. Shu bilan birga san'atga oid eng qiziqarli ma'lumotlar berildi va ko'rgazmalardan foydalanildi.

Malakaviy ishda ko'rgazmalilik, texnik vositalardan foydalanish, kitob bilan ishlash og'zaki bayon qilish, tushuntirish va hikoya qilish, tanlov, turli interaktiv metodlar kabi usullardan foydalanish yo'llari ko'rsatildi va ularni tajriba sinov ishlarida qo'llanildi. Bular orqali ijobiy natijalarga erishildi.

Kasb ta'limi jarayoni orqali o'quvchilarni ijodkorligini oshirish bilan birga ularni turli materiallar bilan ishlash va darslar samaradorligini oshirishga erishish mumkin. Buni ushbu malakaviy ishimda ko'rsatib berdim. Kasb ta'limi darslarida guruhdan tashqari ishlar jarayonida darslar samaradorligini oshirishga qaratilgan turli usullar, yangi ilg'or pedagogik tajribalardan foydalanish orqali mavzular tushunarli, qiziqarli, mazmunli va eng asosiysi o'quvchilarga mavzu esda qolarli darajada o'tishni tajriba sinovlar orqali o'rganildi.

Bitiruv malakaviy ishi yuzasidan ikkita guruhda tajriba sinov ishlari o'tkazildi, va ma'lum darajada ijobiy natijalarga erishildi.

Ushbu o'tkazilgan tajriba natijalari va dars usullarini amaliyotga, ya'ni Kasb ta'limi darslari jarayonida qo'llanilsa, dars samaradorligiga erishiladi.

Kasb-hunar kolleji o'quvchilarining o'qitish jarayonida katta mas'uliyat bilan yondoshishni talab qiladi. Chunki endigina kasb nimaligini, kasb qoidalari bilan tanishayotgan Kasb-hunar kolleji o'quvchisiga bir vaqtning o'zida ta'lim va tarbiya berish ularga milliy qadriyatlarimiz, urf – odatlarimiz haqidagi tushunchalarni singdirish bir muncha murakkablikni o'z ichiga oladi. Kasb-hunar kolleji o'quvchilarini yoshi, saviyasi va bilimini qabul qila olish qobiliyatlarini hisobga olgan holda dars mashg'ulotlarini tashkil qilish o'qitish prinsiplari va metodlariga qat'iy amal qilish maqsadga muvofiqdir.

Biz tajriba – sinov mashg'ulotlarini olib borish jarayonida shunga amin bo'ldikki darslarda noan'anaviy metodlarni qo'llash yangi pedagogik texnologiyalardan unumli foydalanish o'quvchilarga kasb haqida chuqur bilim berish samarali natijalar beradi. Shu tarzda o'quvchilarning kasb haqidagi tushunchalarini o'stirishga harakat qildik. Natija esa yomon bo'lmadi. Kasb darslarida noan'anaviy usullardan, ya'ni qog'oz karton bilan ishlash jarayoni, guruhdan tashqari ishlarning jarayonida o'quvchilarning Kasb darsiga bo'lgan qiziqishlari ijobiy tomon o'zgardi. O'quvchilarni ijodiy qobiliyatlarini shakllantira oldik.

“Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”da ta'lim berishning pedagogik texnologiyalarini zamonaviy o'quv – uslubiy majmuilarini yaratish kabilar umumiy o'rta ta'limning asosiy vazifalaridan biri sifatida ta'kidlangan.

Ilg'or pedagogik texnologiya usullarida foydalanish o'quvchi va o'quvchi faoliyati doirasini aniq belgilab beradi.

Inson hayotida va muhim ahamiyatga ega bo'lgan kasb faoliyatida barcha predmet darslarida amalga oshiriladi.

Kasb darslarining samaradorligi ko'p jihatdan ta'lim metodlarining texnologiyalarining to'g'ri tanlanishiga bog'liq. Binobarin, fanning o'zi kabi dars turlari o'qitish metodlari ham yangi pedagogik texnologiyalar ham doimo rivojlanishda bo'ladi. Bu esa ta'lim sohasida faoliyat olib borayotgan

har bir o'quvchi oldiga katta vazifalarni qo'yadi. O'qituvchi o'quvchiga zamon talablariga mos bilimlar berish uchun avvalo o'zi ana shunday bilimlar bilan qurollangan bo'lishi kerak.

Guruhlarda yutuqlarning asosiy o'quvchilar bilan o'tkaziladigan dars jarayonining sifati bilan belgilanadi. Bunda ilg'or pedagogik texnologiyalar katta ahamiyatga egadir. Bu texnologiyalar ta'lim tizimining ratsional yo'llarini ishlab chiquvchi va loyihalashtiruvchi jarayon bo'lib, unda o'qituvchi mas'ul shaxs hisoblanadi. Chunki, uning asosiy vazifasi axborotni o'quvchilarga tez, aniq va tushunarli tarzda yetkazib berishdan iborat.

- o'quvchilarning kasb darslari haqida tushunchalarni kengaytirish,
- o'quvchilarni ijodkorlikka yo'naltirish
- kasb ko'nikmalarini shakllantirish
- guruh o'quvchilarining davomatini yaxshilash
- mustaqil fikrlash ifodalay olish qobiliyatlari shakllantirish.
- mustaqil tasvirlash, qayta hikoya qilish xususiyatlari rivojlantirish
- o'quvchilarning turli hil qobiliyat va talant qirralari rivojlantirish
- odob axloq haqidagi tushunchalarni rivojlantirish
- vatanga bo'lgan mehr muhabbatni oshirish
- har bir bo'lim boshlanishida o'tiladigan kasb darslari orqali keyingi darslarda o'tiladigan mavzular haqida tushunchalar berib borishlarini tavsiya etaman.

Kasb darslari orqali o'quvchilarni kasbga muhabbat tarzida shakllantirish dunyoqarashini mos mafkurasi asosida to'g'ri shakllantirishga qaratilsa maqsadga muvofiq bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati.

1. Q.Qosimov Naqqashlik: "xalq naqqoshlik to'g'risidagi". T.: "O'qituvchi". 1990 y.
2. Qog'oz va kartondan figuralar yasash (O'qituvchilar uchun qo'llanma). M.I.Mishelevich.
3. "Ikkinchi guruhda darslarni taxminiy rejalashtirish". Toshkent RUMM 1993 y.
4. "Oilada Kasb tarbiyasi" NamDU "Qizlar kamoloti" 1997 y.
5. Kichkintoylarda tejamkorlik ko'nikmalarini shakllantirish. (1-4 guruhlarda Kasb darslari misolida qo'llanma) Toshkent, "O'qituvchi" 1998 yil.
6. "O'zingiz ko'ring va yasang" 1 kitob X.Egamov Toshkent "O'qituvchi" 1998 yil.
7. "O'zingiz ko'ring va yasang" 2 kitob X.Egamov Toshkent "O'qituvchi" 1998 yil.
8. Qog'oz va kartondan figuralar yasash. M.I.Mishelevich.
9. "O'zingiz ko'ring va yasang". 1-2 kitob. X.Egamov. Toshkent. "O'qituvchi". 1998 yil.
10. Mirzaaxmedov M.X. "Materiallarga badiiy ishlov berish". Toshkent "O'qituvchi". 1986 yil.

INTERNETDAN FOYDALANILGAN SAYTLAR

1. WWW.referet.uz
2. WWW.pedagog.uz
3. WWW.ziyoNET.uz